




Tasviriy san'at

T. Qo'ziyev  
A. Egamov  
T. Qanoatov  
A. Nurqobilov

# RANGTASVIR

**5-9**  
sinflar

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI  
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY  
RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM  
VAZIRLIGI, RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

«SAN'AT» JURNALI NASHRIYOTI

TOSHKENT - 2003

Mualliflar:

**Tursunali Qo'ziyev**

**Abloberdi Egamov**

**Tolib Qanoatov**

**Abdurahmon Nurqobilov**

Mas'ul muharrir:

san'atshunoslik fanlari doktori, professor, akademik

**Akbar Hakimov**

Muharrir:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Hamdam Ismoilov**

Taqrizchilar:

---

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn

instituti birinchi prorektori,

akademik, professor

**Sa'dulla Abdullayev**

Qori Niyoziy nomidagi

O'zbekiston Pedagogika

fanlari ilmiy-tadqiqot

instituti bo'lim boshlig'i,

pedagogika fanlari

nomzodi

**Asqarali Sulaymonov**

Respublika ta'lim

markazi bosh

metodisti

**Ma'suda Zokirova**

Respublika tasviriy va

amaliy san'at litsey-

internati o'qituvchisi

**Nosir Qodirov**

Musavvir **S. Abaturov**

Kompyuterda sahifalovchi:

**Sh. Solihov**

**R. Abaturov**

## **Rangtasvir o'quv fanining maqsad va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin'jamiyatimizda katta xayrli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangi tashkil etilgan akademik litsey, kollejlarda tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqoniksiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar dunyosi borliqqa go'zallik, nafosat qonuni orqali qarashga undaydi.

Ushbu darslik - Rangtasvir san'ati sirlarini o'rganishda asosiy qo'llanma bo'lib, u o'zbek xalqining ko'p asrlik badiiy merosi, uning jahon san'ati taraqqiyotida tutgan o'mi haqida tasavvur beradi. Tasviriy, amaliy san'at va dizayn sohasi ijodkorlarini, eng avvalo yosh iste'dodlarni xalqimizning boy ma'naviy dunyosini, shuningdek jahon tasviriy san'ati durdonalarini o'rganishda yaqin ko'makchi hamdir. Ushbu darslikka ko'rgazma faoliyati orqali o'zbek tasviriy san'ati yutuqlarini O'zbekiston va xorijda keng tanitib kelayotgan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi o'quv muassasalarida dastlabki sinovdan o'tgan o'quv reja va dasturlari asos qilib olindi.

Rangtasvir o'quv fani ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda rangtasvir o'quv fani ham o'zining keng imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Rangtasvir fani ijodiy faoliyat, san'atkorning dunyosi, borliqni, uning go'zalligini ranglar orqali ko'rish va tasavvur etish, haqiqiy san'at asarini qadrlashni o'rgatadi.

Bu fanning bosh maqsadi - o'quvchilarda badiiy madaniyat va badiiy fikrlash tafakkurini yuksaltirish hamda ijodiy faoliyatni tarbiyalashdan iboratdir.

Rangtasvir o'quv fani o'z oldiga qo'ygan vazifalar quyidagilardan iborat:

- Atrof muhitdagi ranglarni ko'ra olish va ularni idrok etishga o'rgatish.
- Badiiy qobiliyat, did va fikrlash faoliyatini o'stirish.
- Rangtasvirning nazariy asoslari: nur-soya, rangshunoslik, perspektiva va fazoviy tasavvurni o'stirish, shuningdek rangtasvir san'atining turlari, janr, oqim, atama va iboralari haqida tushuncha berish.
- Rangtasvir asarlarini o'qiy olish va rang ko'rish malakasi, ko'nikmalarini rivojlantirish.
- O'quvchilarni turli kasb-hunarga yo'naltirish va vatanparvarlik, avvalambor milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini tarbiyalash.

Rangtasvir o'quv fanini o'rgatish barcha umumta'lim va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda amalgalashiriladi.

Mazkur darslik - rangtasvirning umumiyligi qonun-qoidalari, rangning to'laligi, kuchi, yorug'lilikka munosabati, toza va shaffofligi, mustaqilligi haqida tushunchalar beradi. Shuningdek, rangning sifatlari, rang tuslari va bo'yoq texnikasi, undan to'g'ri foydalanish, bo'yoqning kimyoviy tarkibi va rang olami haqidagi boshqa ko'plab ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

Bu darslik, tasviriy san'at yo'nalishidagi maxsus litsey, məktəb va to'garaklar uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi



# 1.

## RANGTASVIR - RANG SAN'ATI

Rangtasvir – tasviriy san'atning shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o'rinni egallaydi.

Biror yuzada bo'yoqlar vositasida bajarilgan san'at asari **rangtasvir** deyiladi.

Rangtasvir amalda yo'naliishiga ko'ra mahobatli, dastgohli, miniatyura, teatr rangtasvir bezagi kabi turlarga bo'linadi. Rangtasvir yo'naliishlarining har biri maxsus xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu - bajarish uslubi, shuningdek badiiy obraz talablariga ham tegishlidir.


Rangtasvir obrazlari nihoyatda jiloli va har biri o'ziga xos. Musavvirlar rangtasvir vositalari ko'magida asar yaratadilar va ular har doim chizmatasvir, kompozitsiya imkoniyatlardan foydalanadilar. Demak, rangtasvirda asosiy ifoda vositasi rang bo'lib qolaveradi.

Rangtasvir insonning murakkab aql-zakovati, tafakkurini, tabiatda sodir bo'lib turadigan katta-kichik o'zgarishlarni, uzlusiz falsafiy g'oyalari va fantastik obrazlarni ta'sirchan ifodalashga qodir. Hodisa, voqeа va ko'rinishlar doirasining to'laligi turli yo'naliishdagи janrlar orqali ochib beriladi.


Rangtasvir tarixi ibridoiy odamning g'or devoriga chizgan rasmlaridan boshlanadi.

Yuksalish davrida ulkan mafkuraviy durdonalar to'plangan.

O'zbekiston hududida qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos boy namunalarga ega. Bular kulolchilik san'ati va binolar devorlariga ishlangan rangli suratlarda ko'rindi. Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha va Panjikent-dagi bino devorlariga ishlangan rangli tasvirlar ma'nodorligi bilan kishini hayratga soladi.



1



2



3



4

Devoriy suratlar jahon mahobatli amaliy bezak san'atining nodir durdonalari bo'lib hisoblanadi. Bu tasvirlar o'zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi va real hayot badiiy obrazlarda ifoda ettirilganligi bilan kishilarni hanuz lol qoldirib kelmoqda.

Bu asarlar g'oyasi - xalqlar o'rtaida do'stlik, totuvlik va shuningdek ichki va tashqi go'zalliklarni tarannum etadi. Devordagi rasmlar ramziy mahobatli amaliy bezak san'ati usulida bajarilgan bo'lib, tarix va ilohiyot sirlarini ochib beruvchi bebaholar hisoblanadi.

3. Rafael Santi. "Yosh yigit portreti".
4. Boburnoma. "Qobuldagi bog'i kalo n".



5



6



7

Zaravutsoy g'oridagi ov manzarasi, Zarafshon etagidagi "Sarmishsov" qoyalariga chizilgan yovvoyi hayvonlar tasvirlari bunga misol bo'la oladi.

O'tmishda ajdodlarimiz turli dinlarga sig'inishgan, tasvirlar ijod qilib, o'z e'tiqodlarini ilohiylashtirish maqsadida bebafo san'at namunalarini yaratishgan. Bu tasvirlar tarixiy taraqqiyot davomida ko'plab izlanishlar natijasida noyob, nodir san'at asarlari aylangan.

Uyg'onish davrida inson barcha narsalar uchun taqqoslash mezoni va rangtasvir asarlari qahramoniga aylandi. Madonna tasviri yer yuzida g'oyaviy kamolotning yuksak ko'rinishi bo'ldi. Musavvirlar realistik asarlar yarata boshladilar.

Rangtasvir texnikasi uzlusiz ravnaq topa bordi. Turli syujetlar rangtasvirchilarni yanada o'ziga jalb qildi. Bu esa o'z navbatida XVII asrga kelib janrlar turkumini keltirib chiqardi.




5. Samarkand.  
Afrosiyob.  
Devoriy rangli  
tasvir. VI-VII  
asr (lavha)

6. Surxondaryo.  
Bolaliktepa.  
Devoriy tasvir.  
VI-VII asr.

7. Afrosiyob devoriy  
tasviridan  
lavha.


8. Buxoro. Varaxsha.  
Devoriy tasvir.  
VI-VII asr.



9



10




11

9. Fayyumluk yigit portreti.  
10. Leonardo da Vinci. "Jakonda".  
11. Alberxt Dyrer. "Yosh yigit portreti".  
12. R.Ahmedov. "Ona o'ylari".  
13. A.Abdullayev. "Avtoportret".  
14. Ch.Ahmarov. "Raqqosa".

**Portret** - eng qadimgi janrlardan biri. Fayyum shaharchasida rangtasvirning mum usulida bajarilgan g'oyat go'zal portretlari topilgan. Bu asarlar eramizning I-III asrлarida qadim Misrda yaratilgan. Fayyum portretlari yorqin hayotiy obrazlar ekanligi' shaklning yorug'-soyali hajmiy model asosida bajarilganligi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari Mahmud Muzahhib, Qosim Ali va boshqalar rangtasvirning miniatyura usulida samarali ijod qilganlar.


O'zbek xalqining mohir musavvirlari Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabihev, Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriyev, Sobir Rahmetov, Bahodir Jalolov kabilar buyuk allomalar va portret janrida zamon-doshlarimiz siymolarini yaratganlar va yaratib kelmoqdalar.



12



13



14



15



16

Musavvir narsa va buyumlarning o'ziga xos ko'rinish va timsollarini natyurmortlarda aks ettiradi. Bu janr XVII asrda yuzaga keldi. Mashhur golland natyurmortchilari baliq va turli ichimliklarni kuzatib, ularning mazasini his qildirish va mayjudligidan sevinishga ruhlantiradi. Musavvirlar go'yo hayot lazzatlari madhiyasini kuylaydilar.

O'zbek musavvirlari Yu.Yelizarov, Rahim Ahmedov, Akmal Ikromjonov, G'afur Abdurahmonov va boshqalar ijodlarida natyurmort janriga keng o'rinn berilgan.



17

15. Kamoliddin Behzod  
“Sulton Husayn  
Boyqaro”.

16. J.Umarbekov.  
“Alisher Navoiy va  
Husayn Boyqaro  
yoshligi”.


17. Yu.Yelizarov.  
“Natyurmort”.




18



19



20



21

Asosan tabiat aks ettirilgan suratlar – manzara, ko’rinishlari XVII asrda Gollandiyada yaratila boshlandi. Manzara janri nafaqt tabiat manzarasi asarlari, balki tabiatning cheksiz xilma-xilligi va yil fasllari, turli obhavo sharoiti, oftob yoki oy yorug’i ta’siridagi go’zallikni, balki inson histuyg’usi, kayfiyati haqida ham so’zlab beradi. K.Koro, Van Gog, P.Sezannlar yaratgan manzarałarni bir-biriga taqqoslab ko’ring-a. Bunda siz real tabiatdan turlicha obrazlar keltirib chiqarilganligini ko’rasiz. Bunga asosiy sabab musavvir shaxsidir. Musavvir har doim ham ko’rganini asl holda chizavermaydi, balki rangtasvirga o’zining ichki hissiyotlarini qo’shib yuboradi. Har bir musavvirlarning o’zi sevgan rang uyg’unligi, uslubi, ranglarga o’z munosabati mavjud.

Agar musavvir faqat dengiz manzarasini tasvirlamoqchi bo’lsa, uni marijan deb nomlashadi. Bu ham mustaqil janr hisoblanadi. I. Ayvazovskiy asarlari bu janrga yorqin misoldir.

Ba’zi musavvirlar o’z ijodlarini hayvon va qushlarni tasvirlashga bag’ishlaydilar. Ular animal janr asarlarini yaratadilar. Bu janrnii odatda ozchilik rangtasvirechi rassomlar tanlashadi, biroq grafik va haykaltaroshlar turli hayvonlar, ularning bolalarini chizish va tasvirlashni juda yoqlitradilar.

Musavvirlarini tarixiy janrda, ko’p odamli kompozitsiyalar, real rang yechimi bo’lgan asarlar yaratishga o’tmish voqealari, din va xalqlar tarixi, doston va qissalarda kuylangan pahlavonlar davri ilhomlantiradi.

18. K.Koro. “Martefontenni eslash”.

19. A.Mirzayev. “Rizq”.

20. O.Tansiqboyev. “Tog’ oqshomi”.

21. Pol Sezann “Viktoriya tog’i”.

T.Muhammedov, T.Quryozovlar o'zbek doston, eposlari qahramonlarini tasvirlashda katta ijodiy muvaffaqiyatlarga erishdilar.

J.Umarbekov tarixiy janrda "Inson aql-zakovati" va "Men insonman" asarlarini yaratdi. Musavvirlar o'tmishdagagi muta'lakkir ajdodlar hayoti, ular qoldirgan ma'naviy va madaniy merozi, ilmiy kashfiyotlari va gumanistik ruhdagi fikrlarini o'z asarlarida ifoda etg'anlar.

Bu kompozitsiyalar yaxshilik, go'zallik kabi qadriyatlarga mos ranglar uyg'unligida yuksak mahorat bilan bajarligan.

Matoda faqat muhim qahramonona voqealarni tasvirlabgina qolmasdan, balki odamlarning kundalik yumushlari va oddiy turmushini ham yoritish mumkin. Bu kabi tasviriy asarlar maishiy janrga kiradi. Gohida ularni janqli rangtasvir deb ham ataydilar.



22

Tarixiy va maishiy janrlar ishtirokchilarining o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, obrazlar xarakteri odatda janrlar vositasida yechim topadi.

Biz avvalo asar syujetini ko'zdan kechirib, qanday narsa tasvirlangan, qahramoni kim, bu voqeя qachon bo'lib o'tganligiga qiziqamiz. Shundan so'ng musavvирning uslubini, u yoki bu narsani qanday tasvirlaganini, bo'yoqni qanday qo'yganini (surkab yoki oqizib) va u tanlagan koloritni kuzatamiz. Shunday ekan, tasvirdagi kayfiyat va uning hissiyotga ta'siri rang tanlashga bog'liq bo'ladi. Tasvir koloriti – quvonechli va qayg'uli, beozor va tashvishli, jumboqli va oshkora bo'lishi mumkin.

Qo'lingizdagи kitobdan asar namunalarini kuzatib, ular koloritini sezishga urinib ko'ring. Musavvир fikri va asarning asosiy g'oyasini tushunishga harakat qiling. Bilimdon tomoshabin bo'lish oson ish emas, albatta. Rangtasvir tilini muttasil o'rGANISH, tafakkurni estetik did va tuyg'u'idroknini doimo rivojlantirib borish zarur.




23

Siz tasviriy san'at janrlari bilan boshlang'ich sinflarda tanishgansiz. Shuning uchun bu erda ularning qisqacha tavsifi beriladi. Agar bu haqda ko'proq bilimga ega bo'lishni istasangiz, qo'lingizdagi qo'llanma oxirida keltirilgan maxsus adabiyotlarga murojaat qilishingiz mumkin.

Musavvir rangtasvir vositalari ko'magida betakror ijodiy asarlar yaratib, bizni hayratga soladi, dilimizga quvonch bag'ishlaydi, turli kechinmalar orqali ruhimizni oziqlantiradi va o'z mahorati bilan sirli fikrlariga oshno qiladi.

Rang tabiatda mavjud barcha narsalar shakllarini, atrof-muhit go'zalligini, turli kayfiyat va his-tuyg'ularni ifodalay oladi. Rangni turlicha idrok qilish mumkin, uning vositasida fikr yuritish, loyihalash, konstruksiyalar qurish imkoniyatlari mavjud. "Rang" va "Bo'yoq" tushunchalarini farqlash uchun rangshunoslik asoslarini o'rganmoq zarur. Rangtasvir uchun kerak bo'lgan rangni palitrada bo'yoqlarni bir-biriga qorishtirish yo'li bilan tayyorlab olinadi. So'ngra musavvir tekislik yuzasida ranglar majmuuni uyg'unlashtirgan holda koloritni keltirib chiqaradi. Yagona "rang" so'zi rangtasvir jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va san'atning bu sohasida asos vazifasini bajaradi.



24


23. T.Muhammedov. "Farhodning jasorati".

24. R.Ahmedov. "Tong. Onalik".


2.

## RANGLARNI IDROK QILISH

Tasavvur qiling, atrof muhitda barcha ranglar yo'qolib qoldi-yu, biz uni oq-kulrang tusda ko'rayotgan bo'laylik. Qanchalik g'amgin, zerikarli, biz ko'nikmagan manzara kelib chiqadi. Shundagina hayotda rangning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini payqab qolamiz.




25



25. A.Abdullayev. "Buvi bilan nevara".  
1960 y.

Har bir narsa o'z rangiga ega. Ba'zi narsalarni uning rangi orqali tanymiz. Kattaligi bir xil bo'lgan aylana shaklidagi uchta narsani ko'z oldin-gizga keltiring. Biz ularni o'ziga xos ranglarga bo'yab, olov rang apelsin, qizil pomidor yoki och yashil olmaga "aylantira" olamiz.



26

Rang, meva-chevalarning pishganligi yoki yam-yashil daraxtlarning sarg'ayib, qizarib borayotgani va kuzning kirib kelganligidan dark bera-di. Hatto havo qatlami, uzoqdagi o'rmon yoki tog'larni rang-barang bo'yoqlarga bo'yab, bo'shliqdagi mo'ljalni topish imkonini beradi. Kun-nning turli vaqtlarida charaqlagan oftob rangidan yeru ko'k, suvlar rangi o'zgarib ketadi. Kunning g'ira-shira paytida yashil rang tovlanib ko'rindi, qorong'ilik tushganda esa qizil, pushti ranglar to'qlashadi, ko'k, yashil ranglar och tusga kiradi.



27



Olamning go'zalligi, buyumlar shakli va jismini, bo'shliq va yorug'likni rang fazilatlari orqali ko'ra olamiz.

Rang-biz kuzatib, his qilgan buyumning asosiy belgilaridan biridir.

Hayotbaxsh tabiatning rang-barang fasllari o'ziga xos ravishda bizni shod etadi. Yil fasllarining har biriga xos bo'lgan o'z ranglari bor. Bahorning nozik, yozning shirali, kuzning charaqlagan va qishning jarangsiz ranglarida siz did bilan tanlov o'tkazishingiz mumkin. Ijodiy ishlaringizda rang uyg'unligi qoidalariga amal qilsangiz, chizgan suratlaringiz haqiqatan ham chiroyli chiqadi.

26. Uchta dumaloq shakl.

27. Suv, osmon va er rang tuslarining yoruqlik nuri o'zgarishiga qarab turli rangda ko'rinishi.



## Bahor.

Bahor faslida uyg' onadigan tabiat unchaliq charaqlamagan nozik libos kiyadi. Shu bois bahor palitrası quyidagi yumshoq tuslardan tarkib topadi: och pushti, och jigarrang, och yashil va boshqalar. Ranglar kontrastini keltirib chiqarish uchun yosh nihol maysa rangi, pushti qizil rang va och xira jigarranglardan ham foydalaniladi.



## Yoz.

Yoz faslining bo'yoqlari yorqin, sho'x, rangdorligi bilan ajralib turadi. Musavvir palitrasini o'trang yashil, qizg'ish, och pushti, ko'k, to'q sariq va olov ranglar to'ldiradi. Har bir rangdan turli-tuman murakkab aks ranglar tizimi tanlab olinadi.



## Kuz.

Kuzda musavvir palitrası rang-barang bo'yoqlarga yanada to'lib toshadi. Asar kompozitsiyasida iliq ranglar go'yo shu'lalanayotgandek, kontrastlar ta'sirida ko'k va olov rang, sariq va binafsharang, qizil-sariq, qizg'ish jigarrang va shu kabi ranglar charaqlab, diqqatni o'ziga jalb etadi. Asosiy ranglar gammasini yashil ranglar bilan to'ldirish mumkin.



## Qish.

Qish fasli palitrasida och havorang, binafsharang, muzning ko'kish rangda shu'lalanishi singari turli ranglar, oq-qora keskin ranglar mos keldi. Bu kabi kompozitsiyalarda, odatda, tiniq va rayshan ranglardan foydalaniladi. Qishning romantizm ruhini xolis kulrang tuslar yoritib beradi.



28



29

Yaponiyada qarag'aylarning to'q yashil nina barglari, jigarrang tog'lari, sakuraning pushti ranglari, g'arb ranglariga ko'ra bo'g' iqroqdek ko'rindi. Biroq, ranglarning go'zal birikmalari g'arb namunalarini bo'yicha hamohang bo'lmasdan, ular Yaponiyaga xos rang, tuslarga boydir.

Rang insonni nafaqat shodlantiradi, balki uni g'azablantirishi, tashvishga solishi, g'amgin qilib qo'yishga ham qodir. U ruhiyatimizga katta ta'sir ko'rsata oladi.

Ba'zi ranglar xotirjamlik bersa, boshqalari aksincha, tashvishga so'ladi. Yashil, havorang, ko'k ranglar tasallli beradi, pushti, qizil, sariq, olov ranglar esa asabni qo'zg'atuvchi ranglar turkumiga kiradi.

Ranglar kishi organizmiga shartli ravishda va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishi bilan birga ularning birikmalari ham tajribalarga ko'ra zikr etilgan ranglarni daraklaydi.

Odamlar azaldan ranglarga katta ahamiyat berib kelganlar. O'rta asrlarda pushti rang - kuch-qudrat va qadr-qimmatni, zangori rang - go'zallik, buyuklik va mayinlikni, qora va qizil ranglar - o'lim ma'nolarini bildirgan.

Bayram tantanalarida ranglar yanada ulkan ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan qizil rang - tantanavorlik va buyuklikni, qora rang - g'amg'ussani, oq rang - ozodlik va benuqsonlikni, yashil rang - orzu-umidni bildiradi. Shunisi qiziqliki, yagona bir rangni turli xalqlar, turli ramzlarga yo'yanlar. Masalan, Xitoy, Osiyo va Afrika mamlakatlarida oq rang musibat ramzi deb qaraladi.

Birinchilar qatorida I. Gyote shoir sifatida ishonarli qilib ranglar ta'siri ustida tadqiqot o'tkazdi va yashil rangda saxiylik, tinchlantiruvchi, ko'z va ruhni dam oldiruvchi xususiyatlar mavjudligi: ko'k rangda sovuq ayozni eslatuvchi, qizil rangda dahshatga soluvchi xususiyat bor ekanligini o'z kechinmalarida sezaloldi.

I. Gyote bir manzaraning o'zini yashil, sariq, qizil va shu kabi rangli shishalar orqali ko'zdan kechirib, odamning ruhiy holati o'zgarishlarini kuzatishni xush ko'rardi (30-rasm).

28. Kitagava Utamaro "Oyna oldidagi ayol".

Gravyura.

29. Kiotoda kuz. Foto

Tasvirchilik faoliyatining ta'kidlashicha, odatda qizil rang va uning turli birikmalari - qo'zg 'atuvchi, qizdiruvchi, jonlantiruvchi, faollashtiruvchi, quvvatbaxsh, sariqrang - iliq, tetiklantiruvchi, quvontiruvchi, jozibador, olov rang - quvnoqlik, xurramlik, alangali va xayrli sezgilarni keltirib chiqaradi, deb hisoblanadi. Yashil rang va uning boy birikmalari osoyishtalik, bahu-zurlik va tinch kayfiyat baxsh etadi. Ko'k rangni olaylik, u jiddiylik, musibat, g'am-g'ussa, ko'ngilchanlik va osudalikni anglatadi. Binafsha rang, qizil va ko'k ranglar keltiradigan hissiyotlar birikmalari bilan ta'sir etib, ayni bir paytda o'ziga jalb qilib, quvontiradi va aksincha, g'am-g'ussaga solib, o'zidan uzoqlashtiradi.

Rangni har kim o'ziga xos ravishda his qiladi. Bolalarga xos hissiyotlar shundan iboratki, ularda ziyraklik, kuch-quvvat, ruhiy kechinmlar, did, xulq hali yetarlicha shakllanmagan. Bola atros olamni, insoniy fazilatlarni, shuningdek rang madaniyatini o'rganar ekan, u ranglarning ma'lum qonuniyatlarini bilib olmog'i, olamning rang-barangligini ongli ravishda kuzatib, tartib bilan foydalanmog'i kerak.

Ma'lumki, bolada rang tushunchasi (yashil ko'kat, zangori daryo, sariq quyosh, qizil gul va h.k.) qanchalik tor bo'lsa, u ulg'aygunga qadar "bolalarcha idrok" qamrovida qolaveradi. Aksincha, rang birikmalarin-



30


30. Manzarani rangli shishalar orqali idrok etish. A.Mo'minov asari misolida.

ing xilma-xillik doirasi kengaya borgan sari, idrokning tahlil qilish xususiyati ziyraklashadi va tanlov imkoniyatlari ham oshib boradi.

Rang sezish tuyg'usini rivojlantirishda rangtasvir mashg'ulotlari yordam beradi. Avvalo bo'yoqni qo'lga olib, uning rangini atrofdagi narsa va buyumlarga, borliq tabiatga solishtirib ko'rish, oq bo'yoq va suv yordamida ranglar chiqarish, bo'yoqlarni bir-biriga aralashtirib, yangi rang hosil qilish - bularning bari ko'pdan-ko'p ko'ngilxushlik baxshida etadi.



31a



31b




31c

Qog'oz sathida oqib voyilayotgan shaffof suvbo'yoq, quyuq-yopishqoq guash, ko'pdan-ko'p tus beruvchi baxmalsifat quruq qalamchalar (pas-tel) va hakozo rang va bo'yoqlar bir dunyo bo'lib yordamga keladi.

Rang his qilish tuyg'usini o'stirishi mumkin. Tabiatdag'i go'zal ranglar uyg'unligini, rangtasvir asarlarini, xalq amaliy san'atini, dizaynerlar loyihalagan va konstruksiya qilgan xo'jalik buyumlarini kuzatganda, shunday hol yuzaga keladi.

Qo'lingizdag'i darslikdan o'r'in olgan, rangshunoslik bo'yieha maxsus mashq va ijodiy ishlar ham rang sezish tuyg'usini oshirishga yordam beradi.



32

31. Kulolchilik, R.Muhammadjonov

a) "Musiqachilar" (panno)

b) "Choxsona"

c) Naqshi.

32. V.Balu "Olam uyg'unfigi" Hindiston

“Rang va uni his qilish” o‘yini rangning ifodaviy xususiyatlari va uni his qilishga o‘rgatadi. To‘rt guruh so‘zlar turkumidan ma’nosiga qarab, biutadan so‘z tanlab oling va bular asosida hosil bo‘lgan tasavvuringizni qog‘ozga tushiring. Fikringizni amalga oshirishda butun e‘tiboringizni rangy echimlariga qarating, ranglar siz tanlagan birinchi guruh turkum so‘zlar ma’nosini bildirib tursin. Badiiy rangtasvirchilikning turli imkoniyatlaridan-suvbo‘yoq, guash, quruq bo‘yoqlar (pastel) va shu kabilardan foydalaning.

His-tuyg‘u	ishtirokchi	holat	joy
quvonchli	bola	yomg‘ir	qasr
baxtli	chol	qor	o‘rmon
g‘amgin	qizaloq	quyosh	tog‘
samimiy	buvi	shamol	sahro
badjahl	askar	oqshom	xona
tashvishli	sayohatchi	zarrin tong	bog‘
cho‘chigan	dengizchi	tush payti	sirk
sirli	hindu	kechasi	dala
xotirjam	ko‘lanka	bo‘ron	yo‘l
hasadchi	ot	po‘rtana	daryo
mardona	it	qosh qoraygan	dengiz
		payt	
ajab hol	mushuk	tuman	muz oqimi

Rang xususiyatlarini o‘rganishning yana bir yo‘li rang va tovushni bir-biriga taqqoslashdir.

33-rasmda I. Nyutonning soddalashtirilgan rang spektri va musiqa oktavalari ning taqqoslovlari chizmasi berilgan. Rangli musiqa qurilmalarida rang va yorug‘likning juda go‘zal ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. Eng oddiy qurilmani quyidagicha yasash mumkin. Nursiz qandil o‘rtasiga qizil,



yashil, havorangli chiroqlar o'rnataladi, so'ng maxsus filtrlar orqali magnitofon yoki radio karnayiga ulanadi. Musiqaning baland notalarida qandil havorangga, bas notalarida qizil rang, o'rtacha navolar yangraganda yashil rangga bo'yaladi. Biroq musiqa ohanglarida bir paytning o'zida past, o'rtacha va baland notalar jo'r bo'lganda qandil turli rangdagi yorug'lik birikmaları birlashgan holda nur taratadi. Biroq olamni rangli musiqa orqali idrok qilish darajasi har kimda har xil rivojlangan bo'ladi.



34

Kishi o'z ongida rang va musiqani birlashtirib, rangli musiqa sezgisini o'stirishi mumkin. Bu xususiyat rangtasvirni idrok qilishda va tasviriy ijodda qo'l keladi. Rang xususiyatlarini yaxshi anglash, undan rangtasvirda foy-dalanish, bezak san'atida qo'llashda musavvirga rang haqidagi fan, rang-shunoslik yordamga keladi.

Rang haqidagi fan juda qadimdan mavjud. Eramizdan oldingi IV asrdayoq qadim Yunon olimi Aristotel ranglarning kelib chiqishi va turli ko'rinishlarini tushuntirishga harakat qilgan.

Uyg'onish davrida Italiya buyuk rassomi Leonardo da Vinci o'zining "Rangtasvir haqida risola" asarida rang haqida hozirgi zamon musavvirlari uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

34. E.Masharipov. "Ichan qala".



35

Musavvirlar asar yaratara ekan, rang haqidagi o'z bilimlari va tadqiqotlaridan foydalanadilar, ba'zan tahlil qilish qiyin bo'lgan, sezilar-sezilmash omillar asarda katta ahaniyat kasb etadi.

Masalan, Rembrandt, Rubens va Titsian asarlarida turli his-tuyg'ularni idrok qilish uchun qizil ranglarni taqqoslab ko'rish mumkin.

Asrlar davomida insonlar ranglarni turlicha anglab, turlicha idrok qilishgan. Qadimgi odamlar biz ko'rib idrok qiladigan barcha ranglarni bilishimagan deb hisoblash mumkin. Dastlab ular yorqin ranglarni – qizil, sariq, so'ng havorang, yashil ranglarni farqlashni o'rganganlar.

Ma'lumki, qadim Yunon rangtasvirchilarining palitrasini faqat qizil, tillarang, qora va oq kabi to'rt xil bo'yox tashkil etgan. Sekin-asta ularning palitrasи boyib borgan bo'lsa-da, ular uzoq vaqt davomida ko'k bilan yashil, pushti bilan binafsha ranglarini adashtirganlar va bularni yanada keyinroq farqlashga o'rganganlar.

Insonlarga rangni idrok qilishda tabiatning o'zi yordam qilganligi ma'lum bo'ldi. Mayin rang uyg'unliklarini keltirib chiqaradigan, havo atmosferasi nam bo'lgan shimoliy o'lkalarda musavvirlar osimon, yer, dengiz va uzoqliklarning boy rang tuslariga yanada diqqat qilishlari talab qilinadilar edi.



36



37

35. V.Titsian. Franchesko Donato portreti.

36. P.P.Rubens. Avtoportret. Izabella Bront bilan.

37. Rembrandt. Flora. 1634 y.



38



39



40

38. Musiqachi. Maqbaraga ishlangan freska.  
(Italiya, er. av. 470 y.).  
39. Klod Lorren. "Bayesk qo'llig'i". 1650 y.  
40. Fransisko Goyya. "Soyabon". Madrid.  
1777 y.

Musavvirga tabiatda ranglar uyg'unligi va bir butunligi narsalar yoki tabiat hodisalarini bo'yoqlar yordamida aks ettirishda yordam beradi. Ko'pincha musavvir o'z ijodida tasviriy ifodaning yangi usullari va ashylarini kashf etadi.

Umuman olamni tasavvur qilish Shimolda rangdorroq bo'lgan deyish mumkin va bu o'z navbatida Venetsiya, Parij, Amsterdam va Londonda koloristik rangtasvirni paydo qildi. Shuni aytish zarurki, musavvirlar ochiq havoga-plenerga chiqib tasviriy suratlar chizishga kirishgancha va bu rangni his etish sezgilarini yanada rivojlantirishga imkon bergen. Rangni his qilish odatda rang tuslariga, yorqinligiga va to'qligiga bog'liq. Bu haqda siz keyingi boblardan bilib olasiz.

### 3.

## RANG XUSUSIYATLARI TO'G'RISIDA

Rang o'zi nima, uning qanday xususiyatlari bor? Buyumlarning rangi nimani bildiradi? Nima sababdan ba'zi narsalar ko'k, boshqasi qizil, yana biri yashil rangli?

Bularning barchasiga sababchi o'z yo'lida hamma narsani yorituvchi, aniqrog'i nurlantiruvchi quyosh ekan.

Qorong'ida biz hech qanaqa rangni ko'rmaymiz. Ko'zga quyosh yoki elektr chirog'i nurlari, yorug'lik to'lqinlari tushishi bilanoq, ranglarni his qilish tuyg'usi paydo bo'ladi.



41



42



43




44

41. Tundagi ko'rinish.
42. Yorug'dagi ko'rinish.
43. Axromatik ranglar.
44. Xromatik ranglar.

Odatda rangni ko'rib his qilish ikki guruhga bo'linadi: birinchi guruhnini **axromatik** ranglar: qora, oq, kulrang (eng to'qdan eng och ranggacha) tashkil etadi. Bular **xolis** ranglar deb yuritiladi. Faqtagina hech qanaqa birikmalarsiz toza oq, kulrang va qora ranglar axromatik ranglarga kiradi.

Keyingi guruhga **xromatik** ranglar - qora, oq va kulrang ranglardan tashqari barcha ranglar, jumladan, qizil, sariq, pushti, yashil, havoranglar (nimpushti, nimsariq, nimyashil va hakozo ranglar ham) kiradi.

Quyosh nurlari hayratomuz xususiyatlarga ega. Yormg'ir tomchilari yoki shishaning egri qirralarida, uch qirrali shisha prizmada sinayotgan quyosh nurlari hosil qilgan kamalakni eslab ko'ring. Birinchilardan bo'lib bu hodisani inglez fizigi I. Nyuton kashf etdi, u oq rangni spektr ranglariga yoyib chiqishga erishdi.



45


Prizma to'lqin tarkibidagi nurlarni qisqa, o'rta va uzun guruhlarga ajratadi. Qisqa to'lqinlar qizil va sariq rangni, uzunroq to'lqinlar ko'k va binafsha ranglarni aks ettiradi. Ranglar to'g'risidagi ma'lumotni fizika darslarida chuqurroq o'rghanasiz.

Quyosh yorug'ida barcha rang to'lqinlari mavjud. Bularning hammasini qo'shib aralashtirganda oq rangni tasavvur qilamiz, ajratib chiqilganda esa kamalak ranglarini ko'ramiz.


Yorug'likning to'lqinlanish xususiyati - ko'rish organlari orqali rangni ko'rib, uni his qilish asosini beradi.

Qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko'k va binafsha ranglar spektrni tashkil etadi. Spektr ranglari har doim doira ichida quyidagi tartibda joylashgan bo'ladi: qizil, qizg'ish-olovrang. Olovrang, sarg'ish-olovrang. Sariq, sarg'ish-yashil. Yashil, ko'kimtir-yashil. Ko'k, ko'kimtir-binafsha. Binafsha, qizg'ish-binafsha.

45. Oq nuring prizmadan o'tib, spektr ranglari hosil bo'lishi.
46. Spektr ranglari.



46



Rang spektrining eng chetida joylashgan qizil va binafsha ranglar - o'rtadagi ranglar, ya'ni qizil va yashilga nisbatan bir-biriga ko'proq o'xshaydi. Bu spektr ranglarini aylana bo'ylab joylashtirish imkonini beradi.

Qarang, qanday go'zal! Bu ranglar doirasidan darslarda foydalanish juda qulay, bunga biz hali qayta-qayta iqror bo'lamiz (47-rasm). Ranglar doirasidan barcha tuslarni diqqat bilan kuzatib, nomini aytishga harakat qiling. Qizil va olovrang o'rtasida qizg'ish-olovrang, sariq va olovrang orasida sarg'ish-olovrang va shu tarzda har bir juft ranglar oralig'i davom etishini tushunib olamiz.

Ranglar doirasasi odatda ikkiga: iliq va sovuq ranglarga bo'lib o'rganiladi.

**Iliq ranglar.** Qizil, sariq, olovrang va tarkibida shu ranglardan oz bo'lsada aralashgan barcha ranglar. Iliq ranglar quyosh rangi, olov va tabiatda haqiqatan ham issiq beruvchi manbalarni eslatadi.

**Sovuq ranglar.** Ko'k, havorang, yashil, ko'k-binafsha, ko'k-yashil va bularning birikmasidan kelib chiqqan barcha ranglar. Sovuq ranglar bizning tasavvurimizda haqiqatan ham sovuqlik keltiruvchi narsalar - muz, qor, suv, oy yorug'i va shu kabilar tarzida namoyon bo'ladi.

47. Spektr ranglar doirasasi (12 rang).

48. Iliq va sovuq ranglar.



49



Iliq ranglar gammasi:

Har qanday musavvir o'z ijodi davomida u yoki bu ranglar gammasini afzal ko'rgan davrlar bo'ladi. Masalan, ispan musavviri P.Pikasso bir vaqtlar sovuq ranglar bilan ishlagan bo'lsa, yana bir davrda iliq ranglarga o'tgan (Bu davrlar uning ijodida havorang va pushti rang davrlari deb nomlanadi).

Ba'zi musavvirlar iliq rang tuslari ishtirokida (Rembrandt, Rubens, Titsian, D.Levitskiy, V.Tropinin) va yana birlari sovuq ranglarni afzal ko'rib, ijodida foydalanganlar (E.Greko, Murilo, V.Borisov-Musatov).



50



51

49. Rafael Santi. Portret.

50. Ch.Bekniyrov. "Kuz".

51. D.Kuliyev. "Dutorli natyurmort".




52



53




54




Sovuq ranglar gammasi:

52. O'.Tansiqboyev. "Mening qo'shig'im".
53. O'quv ishi. K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.
54. O'quv ishi. Respublika rassomchilik kolleji.
55. J.Basharov "Bulutli kun".





56a



56b



56. a) Iliq gammada ishlangan natyurmort.

b) Sovuq gammada ishlangan natyurmort.


57. a) Iliq rangli gulning yashil fonda ko'inishi.

b) Sovuq rangli gulning binafsha fonda ko'inishi.

## Ranglarning fazoviy xossalari

Haqiqiy joylashgan o'rniga nisbatan yaqinroqda bo'rtib ko'rinaradigan ranglar - iliq ranglar turkumiga, haqiqiy joylashgan o'midan nariroqda ko'rinarayotganlari - sovuq ranglar turkumiga kiradi.


Musavvirlar bu xususiyatlardan unumli foydalanib, ranglar ko'magida yaqinlik va uzoqlik tasavvurini aks ettiradilar.



58

58. Rangni chuqur idrok etish taassurotga bog'liqligi.
59. D.Mirsalimov "Bobur" portreti.
60. Y.Tursunnazarov. "Angren tog'lari".

58-rasmni kuzatar ekanmiz, to'g'riburchaklar o'cham�ari bir xil ekanligini darrov payqaymiz. Biroq turli ranglar sababli ba'zi shakllar yaqinroq, boshqa birlari uzoqroq joylashgandek tuyuladi. Sariq rangli to'g'ri burchak eng yaqin, och baxmal ranglisi sal nariroq, to'q baxmal rang undan ham nariroqda joylashgandek bo'lib ko'rindi.



59




60

4.

## ASOSIY, BIRIKMA VA QO'SHIMCHA RANGLAR



61




62

61. Asosiy ranglar.
62. Qo'shimcha ranglar.
63. Ranglar doirasi (24 rang).

Boshlang'ich maktab kurslaridan sizga ma'lumki, ranglarni bir-biriga aralashtirish yo'li bilan chiqarib bo'lmaydigan ranglarga asosiy ranglar deyiladi. Bular qizil, sariq, ko'k ranglardir.

47-rasmda ular ranglar doirasi markaziga aylana shaklida joylashtirilgan.

Asosiy ranglarni bir-biriga aralashtirib chiqarilgan ranglarni birikma yoki yasama ranglar deyiladi. Bizning misolda ular uchburchaklar ichida, biroq markazdan nariroqda joylashgan. Bular: olov rang, yashil va binafsha ranglardir.



63

Sariq rang o'rtasidan boshlab, ranglar doirasiga diametr o'tkazamiz va uning bir uchi binafsha rang o'rtasidan o'tganligini ko'rish mumkin. Ranglar doirasida joylashgan olov rang qarshisida ko'k rang joylashgan. Shu tarzda shartli ravishda qo'shimcha ranglar deb ataladigan juft ranglarni aniqlash qiyin emas. Qizil uchun yashil qo'shimcha rang yoki buning aksi bo'ladi. Qo'shimcha ranglar uyg'unligi rangning alohida yorqinligini aks ettiradi. Biroq har qanday qizil rang istalgan yashil bilan yaxshi uyg'unlashadi. Qizil, yashil, ko'k, sariq, binafsha va boshqa ranglarning ko'pdan-ko'p tuslari bo'lishi mumkin. Masalan, agar qizil rang ko'k rangga yaqinroq bo'lsa, bunday qizilning qo'shimcha rangi sarg'ish-yashil bo'ladi.

Biz o'n ikki rangdan iborat bo'lgan ranglar doirasi bilan tanishdik. Ammo bu yigirma to'rt rangdan iborat bo'lishi ham mumkin (63-rasm). Bu kabi ranglar doirasi qo'shimcha ranglar va juft ranglar tusini aniqroq o'rGANISHGA imkon beradi.

Ranglar doirasidagi barcha tuslarni nomlab chiqing.

## 5.

# RANGLARNING ASOSIY TAVSIFLARI

Har bir rangning o'ziga xos uch xususiyati mayjud: rang tuslari, och-to'qligi va yorqinligi.


Bulardan tashqari, yorug'lik va ranglar kontrasti tavsiflarini bilmoq, narsaning o'z rangi tushunchalari bilan tanishmoq va ranglarning ba'zi fazoviy xususiyatlarini idrok qila bilmoq zarur.

## Rang tusi


Ongimizda rang tuslari bizga tanish bo'lgan narsalar rangi orqali shakllanadi. Ko'pchilik ranglarning nomlari to'g'ridan-to'g'ri o'sha narsalarning o'ziga xos ranglardan kelib chiqqan: olovrang, kulrang, tillarang, binafsharang kabilar.

Rang tuslarini ularning nomlari (sariq, qizil, ko'k va hakozo) va spektrdagagi o'rni orqali aniqlanishini anglash qiyin emas. Shuni bilish foydaliki, yorug' kunda mashq qilgan ko'z rangning 180 tusini, to'qligining 10 pog'onasini farqlay oladi. Tafakkuri kamol topgan inson ko'zi rang tuslaridan taxminan 360 tasini farqlay oladi.


## Rangning och - to'qligi



64




65



66

64. Rang yorqinligining o'zgarishi.
65. O'quv ishi. Natyurmort. Respublika rassomchilik kolleji.
66. T.Qo'ziyev. "Bog'bon". O'zbekiston Davlat San'at muzeyi.




67 Sovuq va iqliq ranglarning och-to'qligi.

## Yorqinlik

Rangning uchinchi xususiyati-yorqinlikdir. Kuchidan qat’iynazar, har qanday rang va tusni yorqinligi bilan solishtirib ko’rish mumkin, ya’ni qay biri qoraroq, qay biri yorqinroq. Rangga oq bo’yoq yoki suv qo’shib yorqinligini o’zgartirish mumkin. Qizil-pushti rang, ko’k-havorang, yash-il-nimyashil rang tuslarga aylanadi.



68. Oq bo’yoq qo’shilganda ranglar yorqinligining o’zgarishi.



69. Ranglarni yorug’lik to’qligiga qarab farqlanishi.

slash mumkin: oqish-yashil bilan qoramtil-yashilni, pushti rang bilan ko’kni, qizil bilan binafsha rangni va hakozo.

Shunisi diqqatga sazovorki, qizil, pushti rang, yashil, jigarrang va shu kabilar och va to’q ranglar ham bo’lishi mumkin. Atrofimizdagи narsa-buyumlar ranglarini bilganligimiz uchun ularning yorqinliklarini tasavvur qila olamiz. Masalan, sariq rang ko’k rangga nisbatan yorqinroq ekanligini yodda tutgan holda sariq limon ko’k dasturxonadan yorqinroq ekanligini bilamiz.

Axromatik ranglar ya’ni oq, kulrang va qora ranglar faqat yorqinlik bilan tavsiflanadi. Yorqinlik bo’yicha farqlar ba’zi ranglarning ochroq, ba’zilarining esa to’qroqligidadir.

Har qanday xromatik rangni yorqinlik bo’yicha axromatik rangga taqqoslab ko’rish mumkin. 24 rangdan tarkib topgan ranglar doirasini kuzating (63-rasm).

Qizil bilan kulrangni, pushtirang bilan qorani bir-biriga taqqoslash mumkin. Axromatik ranglar xromatik ranglar yorqinliklariga teng qilib olingan.

## Yorug'lik va rang kontrasti

70. Natyurmordda ranglar kontrasti va yorug'lik.  
a) Vanseta xonim. Natyurmort.  
b) L.Salimjonova. Natyurmort.



70a




70b

## Yorug'lik kontrasti



71. Yorug'lik kontrasti.

## Rang kontrasti



72. Rang kontrasti.

Buyumlar rangi muhit sharoitidan kelib chiqqan holda doimo o'zgarib turadi. Bunda yorug'lik katta ahamiyatga egadir. Bir buyumning tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganini qarang (70-rasm). Agar buyumga tushayotgan yorug'lik sovuq rang bo'lsa, soyalar iliq rang bo'lib va aksincha tushayotgan yorug'lik iliq rang bo'lsa, soyalar sovuq rang bo'lib ko'rindi.

Yorug'lik va rang kontrastlari buyumning bukilgan joylarida, ya'ni shaklning buriishlarida, shuningdek kontrast fon bilan tutashuv chegaralarida aniq va ravshan idrok etiladi.

Musavvirlar tasvirda buyumlarning turli tuslarini ifodalashda yorug'lik kontrastlaridan foydalanadilar. Och rangdag'i narsalarni to'q ranglilari yoniga qo'yilib, ranglar kontrasti kuchaytiriladi va ular shu usulda shakl ifodasini yoritishga erishadilar.

Oq va qora fonlarda joylashgan bir xildagi kulrang to'g'riburchaklarni bir-biriga taqqoslab ko'ring. Ular bir necha xilda ko'rindi.

Kulrang qora fonda asliga ko'ra ochroq, oq fonda esa to'qroq bo'lib ko'rindi. Bu kontrast hodisalari **yorug'lik** yoki **yorqinlik kontrasti** deb ataladi (71-rasm).


Biz buyumlar rangini atrof-muhit foniga nisbatan idrok etamiz. Oq dasturxon ustiga olov rang apelsintar qo'yilsa, dasturxon havorang, yashil olma qo'yilganda pushti rang bo'lib ko'rindi. Bunga sabab, narsalar rangiga nisbatan fon rangi qo'shimcha rang tuslarini o'zgartiradi. Kulrang fon qizil buyum yonida sovuq, ko'k va yashil buyum yonida esa iliq bo'lib ko'rindi.

72-rasmida bir xil 3 ta to'g'riburchak berilgan. Ular ko'k fonda-olovrang tusda, sariq fonda - binafsha, yashil fonda-pushtirang tuslarga kiradi, ya'ni bu kvadratlar fon rangiga nisbatan qo'shimcha ranglarni o'zlashtiradi. Buyum rangi och fonda to'qroq, to'q fonda ochroq bo'lib ko'rindi.

Ranglar kontrasti hodisasi - har qanday rang atrofdagi boshqa ranglar ta'siri natijasida asl rangiga nisbatan o'zgarishini ko'rsatadi.

Qo'shimcha ranglar bir-birlari yonida yorqinroq va to'qroq bo'lib ko'rindi. Bu jarayon asosiy ranglar orasida ham mavjud. Masalan, qizil pomidor yashil oshko'klar yonida yanada qizilroq, baqlajon sariq sholg'om yonida yanada binafsharoq ko'rindi.

Ko'k va qizil ranglar kontrastlari sovuq va iliq ranglar kontrastlari timsolidir.



73

Ko'pchilik Evropa rangtasvirchilari Titsian, Pussen, Rubens, A.Ivanovlar yaratgan asarlar koloriti dramatik kontrastni kuchaytirib turadi.

"Umuman olganda kontrast, - deb ta'kidlaydi atoqli rus musavviri va olimi N.Volkov, - asarda ranglarni bir-biriga qarshi qo'yish musavvirlarning asosiy uslubidir".



74b

73. Rang kontrastiga misollar.

74. a) Soyabonlar. Ranglar uyg'unligiga misollar.

b) Havo sharlari. Ranglar kontrastiga misol.




74a





75a




75d



75c



75d



75e

75. Tabiatda va amaliy bezak san'atida rang kontrastlari (foto lavhalar).
- Xon atlas
  - Tovus pati
  - Kuz barglari
  - Tabiat tasvirsi
  - Me'moriy naqshlar (Samarqand).

Atrof olamda bir rangning ikkinchisiga ta'siri biz ko'rgan misollarda bir muncha murakkab bo'lib, yorqinligi va rang kontrastlari katta ahamiyat kasb etadi va rasm chizayotgan kishiga ranglarning amaldagi uyg'unliklarini aniqroq ko'rib, his qilishga yordam beradi. Ular olgan bilmilaridan amaliy ishlarida foydalanadilar. Yorug'lik va ranglar kontrastlaridan foydalanish tasviriy asarlar joyibadorligini yanada oshiradi.

Amaliy bezak ishlarini ma'nodor qilishda tus va ranglar kontrastlari katta rol o'yynaydi.

## Asl rang

O'z xonangizdag'i narsalar va buyumlarni kuzating. Derazan dan tashqari ga qarang. Siz ko'rgan barcha narsalar o'z shaklidan tashqari o'z rangiga ham ega. Olmaning sariqligi, piyolarning qizil, dasturxonning ko'kligi, devorning nim havorangligi va shu kabilarni osongina aniqlab olasiz.

Buyumning asl rangi – bu toza, aralashmag'an va o'zgarmas tus bo'lib, u mo'tadilligi va o'zgarmas xususiyati bilan ongimizda ma'lum bir narsa va buyumni anglatadi.

**Asl rang** - tashqi muhit ta'sirlari hisobga olinmagan biror narsa yoki buyumning asosiy rangidir.

Narsa yoki buyumning asl rangi bir tusli (76-rasm) yoki bir necha tuslardan tashkil topgan bo'lishi mumkin (77-rasm). Siz atirgullarning asosiy ranglari oq yoki qizil ekanligini ko'rasiz. Lekin har bir gulda asl rangning bir necha tuslarini sanash mumkin.

Narsa va buyumlarning o'ziga qarab yoki xotiradan rasm chizganda ularning asl ranglari, yarim soya va soya ta'sirida o'zgarish xususiyatlarini ifoda etish talab qilinadi. Birgina asl rangning o'zi yorug'lik, havo qatlami ta'siri ostida va boshqa ranglar bilan aralashib qolganda, soya yoki yorug'da boshqa tuslarga kira boradi.

Ostob nurlari bilan yoritilgan buyumning asl rangi uning yarim soyasi



76



76. Natyurmort (foto).

77. Jan Davids De Heem, "Guldondagi gullar".



78

78. Z. Kovalevskaya. "Natyurmort".  
79. M. Nuriddinov "Natyurmort".



79

ichida yaqqol ko'rindi. Asl rang to'liq soya ichida to'liq ko'rinnmaydi. Yorqin nurda esa, shu'lalanib rangi xiralashadi.


Musavvilar asl ranglarning yorug'-soya o'zgarishlarini aniq ifodalab, narsa va buyumlar go'zalliliklarini bizga namoyish etadir.

Asosiy, birikma va qo'shimcha ranglardan soydalanish nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirib olganingizdan so'ng, narsa va buyumlar asl ranglari va tuslarini yorug'da, shuningdek soyada osongina ifodalay olasiz. Narsa va buyumdan tushayotgan yoki unga tushayotgan soya ichida har doim uning o'z asl rangiga qo'shimcha bo'lib hisoblanadigan rang ishtirot etadi. Masalan, qizil olma soyasida qo'shimcha yashil rang ishtirot etadi. Bundan tashqari har bir soya ichida buyumning o'z rangiga nisbatan to'qroq bo'lgan tus bilan birga ko'k tus ham ishtirot etadi. Shuni yodda tutish kerakki, buyumning asl rangiga uning atrofidagi muhit ta'sir o'tkazadi. Sariq olma yoniga yashil mato qo'yilganda rang refleksi paydo bo'ladi, ya'ni olmaning o'z soyasi yashil rangni aks ettiradi.


6.

## RANGLAR BIRIKMASI

Tabiiy sharoitda ko'rinyotgan ranglar odatda spektr ranglari aralashuvi natijasi deb qaraladi. Rang birikmalarining asosan uch usuli mavjud. Bu **optik, fazoviy** va **mexanik** birikmalardir.



### Ranglarning optik birikmalar



80

80. Ranglarning optik birikmasi.


Ranglarning optik birikmalari yorug'likning to'lqinlanish xususiyatiga asoslanadi. Sektorlari kerakli ranglarga bo'yalgan doirani juda tez aylantirish yo'li bilan bu birikmani hosil qilish mumkin. Ranglarning optik birikmalarini tajribada ko'rish uchun maxsus pirildoq yasab, amalda sinab ko'rish mumkin. Prizma yorug'likning oq nurini asosiy spektr ranglariga bo'lib yuboradi, pirildoq bu ranglarni aralashtirib, qaytadan oq rangga aylantiradi.

"Rangshunoslik" tanida ranglar fizik xususiyat deb qaraladi. Ranglarning optik va fazoviy birikmalar mexanik birikmadan farq qiladi. Optik birikmada asosiy ranglar - qizil, yashil va ko'k bo'lsa, mexanik birikmada - qizil, ko'k va sariqdirdi.

Qo'shimcha ranglarning (ikki xromatik rang) optik birikmasi axromatik rangni (kulrang) beradi.

Teatr yoki sirkka tushganingizda ko'rgan rangli yoritgichlar sizga bayramona kayfiyat berib, quvontirganini eslang. Agar yoritgichlarning qizil, ko'k va yashil nurlarini diqqat bilan kuzatsangiz ularning birikuvi natijasida oq rang paydo bo'lganini payqaysiz (80-rasm).

Ranglarni optik biriktirish yo'li bilan ko'p rangli tasvir keltirib chiqarish tajribasini ham o'tkazish mumkin. Uchta yoritgichga rangli filtrlar (qizil, ko'k, yashil) taqiladi va oq ekran yuzasida nurlar bir nuqtada tut-ashtiriladi. Natijada siz sirkda ko'rgan ranglarning barchasi paydo bo'lganini ko'rasiz. Bir vaqtning o'zida ekranning ko'k va yashil ranglar bilan yoritilgan joyi havorang bo'lib qolganini ko'rasiz. Ekranda nurlanayotgan ko'k va qizil ranglar aralashuvi pushti rangni, yashil va qizil ranglar aralashuvi esa kutilmaganda sariq rangni keltirib chiqarganini ko'rasiz. Taqqoslab ko'ring: agar biz rangli nurlarni qo'yib, bo'yoqlarni aralashtiradigan bo'lsak, mutlaqo boshqa ranglarga ega bo'lamiz (81-rasm).



81. Ranglarning mexanik birikmasi.

## Ranglarning fazoviy birikmalar

Rangli nurlarning uchlasini bir joyga yig'ib oq rangga erishamiz. Agar yoritgichga oq-qora slayd o'rnatilgan bo'lsa, ularni nurlar yordamida rangli qilishga urinib ko'rish mumkin. Ko'k, yashil va qizildan iborat uch nurni aralashtirish yo'li bilan ko'pdan-ko'p rang tuslarini keltirib chiqarish mumkinligiga tajriba o'tkazib ko'rmasdan turib ishonish qiyin, albatta.

Ranglarni optik biriktirishning murakkab moslamalari mavjud. Ular-dan biri televizor. Har kuni rangli televizorni ishga solar ekansiz, ekran-da turli tuman rang tuslarini ko'rasiz, ular o'z navbatida qizil, yashil va ko'k nurlanishlarni bir-biriga aralashtirishga asoslangan.

Ma'lum bir masofadan unchalik katta bo'lмаган va bir-biriga tegib turgan uchta rang bo'lagi kuzatilganda ranglarning fazoviy birikmalari ni ko'rish mumkin. Mazkur mayda bo'lakchalar bir butun bo'lakka birlashib, ular birikuvidan kelib chiqadigan ranglar majmuasi tarkib topadi.


Masofada ranglarning birlashuvlari insonning ko'z tuzilishida rang ajrata olish xususiyati bilan bog'liq bo'lib, optik birikuv qonuniyatları asosida sodir bo'ladi.

Musavvir har bir asarini yaratish jarayonida, ranglarning fazoviy bir-





83



84

ikuvlarini nazarda tutmog'i va bu asar, albatta, ma'lum bir masofadan tomosha qilib, kuzatilishini hisobga olmog'i zarur.

Kattaroq masofadan tomosha qilishga mo'ljallangan o'chami katta tasviriy asarni yaratishda ranglarning fazoda birikuvlardan hosil bo'ladigan taassurotni alohida yodda tutmoq zarur.

Impression musavvirlar, ayniqsa alohida surtmalar texnikasi – mayda-mayda rangli nuqtalar yordamida tasviriy asar yaratuvchilar, rangtasvirning katta bir yo'nalishiga puantilizm (fransuzcha “puant” - nuqta so'zidan) nomini bergenlar.

Ma'lum masofadan qaralayotgan tasvirda xilma-xil rangli mayda surtmalar, kuzatish jarayonida bir-birlariga qo'shib, yaxlit rang bo'lib ko'rindi.

Musavvir Jakombo Balla ranglarni birikuvchi davrlarga yoyish ustida qiziqarli tajriba o'tkazdi. U nafaqat rangni, balki tezkor fotografiya tayyorlashdек murakkab harakatlardan foydalangan holda shu harakatlarning o'zlarini ham birikuvchi davrlarga yoyib chiqdi. Natijada g'aroyib “Bolaxonaga yugurib chiqqan qiz” manzarasi paydo bo'ldi va unga faqatgina uzoqdan qaralganda ranglarning fazoviy-optik birikuvlari asosida muallif fikri ochib beriladi.

- 82. Z.Islomshayxov “Manzara”.
- 83. Uilyam Terner. “Jasorat” kemasingin oxirgi qatnovi. London. 1838.
- 84. A.Yunusov. “Hovli”.
- 85. Bosmaxonaning rang taqsimlash bosqichlari:
  - a) Rasmning qirmizi bo'yq bosma nusxasi.
  - b) Rasmning sariq bo'yq bosma nusxasi.
  - c) Rasmning havorang bo'yq bosma nusxasi.



85a

85b



85c



86a



86b



87

Bosmaxonalarda rastr qoliplari yordamida tasvirlarni nashr etish uchun uning barcha tuslari rangini berishda ranglarning fazoviy birikuvlariiga asoslanadi. Ma'lum bir masofadan turli rang nuqtalari bilan bo'yalgan bo'laklarni kuzatar ekansiz, siz ularning ranglarini biri-biridan ajrata olmaysiz, balki fazoviy birikuvlardan asosida ko'rasiz.

Qo'lingizdagagi va shuningdek boshqa ko'pgina kitoblardagi rangli suratlar uchta asosiy rangga (pushti-qirmizi rang, sariq va havorang) taqsimlash yo'li bilan bosilgan. Bu ranglarni navbatma-navbat chop etish paytida ularning mexanik birikuvlari sodir bo'ladi. Qora rang kontur uchun yoki boshqa bir rangga talab me'yorida qo'shiladi, qog'ozning rang bosilmagan joylari oq rang vazifasini bajaradi. Agar to'rt bo'yoqli tasvirning kattalashdirilgan bo'laklarini yaqin va uzoq masofadan kuzatsak, ularda mexanik va fazoviy birikmalar kabi natijalarni ko'ramiz.

## Ranglarning mexanik birikmalarি

Ranglarning mexanik birikuvlari - biz bo'yoqlarni palitradan, qog'ozda, mato yuzasida aralashtirganimizda sodir bo'ladi. Bunda rang va bo'yoqlarning bir xil narsa emasligini aniq va ravshan bilish kerak. Rang optik (fizik), bo'yoq esa ximik xususiyatlarga ega.

Ranglar tabiatda biz kashf etib to'plagan bo'yoqlarga nisbatan bir muncha ko'pdır. Bo'yoqlar rangi ko'pchilik narsalarning rangiga nisbatan kam ta'minlangan. Eng och bo'yoq oq (belila), eng to'qi qora bo'yoqqa nisbatan atigi 25-30 marotaba yorqinroqdir. Rangtasvirda tabiatning barcha boyliklari, uning rang-barangligini bu kamgina bo'yoqlar bilan aks ettirib bo'lmaydigandek. Lekin musavvirlar o'z mahorati bilan asarlarida barcha ranglarni jilolantirib kelmoqda.

Biroq musavvirlar rangshunoslikda o'z bilimlaridan hamda ma'lum tuslarni tanlash va koloristika uyg'unligidan foydalangan holda kerakli yechimlarga erishmoqdalar.

Rangtasvirda ranglarning go'zal birikmalaridan kelib chiqib, turli bo'yoqlar yordamida bir rangni yoki bir bo'yoq bilan bir necha rangni ifodalash mumkin. Agar har bir rangga qora bo'yoqdan oz-ozdan qo'shilsa, jozibali natijalarga erishish mumkin (88-rasm).

86a. To'rt bo'yoqli bosma nusxasini chiqarish.

86b. To'rtinchchi qora bo'yoq.

87. To'rt bo'yoqli bosma nusxanining kattalashgan ko'rinishi.



88

Gohida bo'yoqlarni mexanik aralashtirish yo'li bilan ranglarning optik birikmasini hosil qilishdagidek natijalarga erishish mumkin. Biroq ular odatta bir-birlariga mos kelmaydilar. Bunga palitradagi hamma bo'yoqlarni qo'shib, aralashtirganda optik birikuv singari oq rangni bermay, balki kulrang, qo'ng'ir, jigarrang yoki qora rang bo'lib qolganini misol qilib keltirish mumkin (89-rasm "Raqsga tushayotgan bolalar").

Ranglarni ustma-ust qo'yib aralashtiring. Bu rasmni ko'rib bir yupqa matoning ikkinchisiga ustma-ust kelganida sodir bo'ladigan rang o'zgarish holatini kuzating.



89

88. Palitradada bo'yoqlarning mexanik birikmasi va qora bo'yoq.

89. Raqs tushayotgan bolalar.

## 7. KOLORIT

Rang birikmalari rangtasvirda g'oyat muhim vazifani bajaradi. Odatta yorqinligi va tusi bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar o'zaro birlashadilar. Ranglar o'zaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida jarangdorlik namoyon qilib, sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanadi. Umumiyloritdan ajralib qolgan rang nomuvosiq-begona bo'lib ko'rindi va tasviriy asar yaxlitligiga putur etkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning o'zaro bog'liqligi asosida quriladi. Bu, asar yaxlitligiga zarar etkazmagan holda yorqinligi yoki och-to'qligi bo'yicha birorta rang bo'lagini o'zgartirish, uni kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin bo'lmaydi.


Tasvirda turli ranglarning garmonik, go'zal tus birikmalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik **kolorit** deb ataladi.

Kolorit bizga olamning boy, rang-barang go'zalligini ochib beradi. U musavvirga tasvir kayfiyatini ifoda qilishda yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlantiruvchi, xavotirli, ma'yus bo'lishi mumkin, shuningdek iliq va sovuq, yorqin va bo'g'iq bo'ladi. O'tmish ustozlarning rangtasvir asarlari quyidagi ayrim davrlarda kolorit rivojini kuzatish imkonini beradi. Kolorit tushunchasi XV asrning oxirlarida shakllanib, Borokko davrida ravnaq topdi. Undagi dastlabki o'zgarishlar asr oxirlarida namoyon bo'la boshladi. Bu davrda bo'yoqlarni alohida-alohida qo'ymasdan ranglarni silliq edirma qilib, yarim soyalarga ulashgan. Konstebelga, ayniqsa, impressionchilarga kelib bu hol yanada keskinlashdi. Ajoyib rus san'atshunos olimi B. Vipperning ilmiy asarlari aynan rangtasvir koloriti tarixiga bag'ishlangan.

XV asrda Italiya, Fransiya, nemis musavvirlari tasvirlarida bo'yoqlar bir-biriga nisbatan mustaqil ravishda mayjud bo'lgan. Bernard Strigel mакtabiga oid musavvir Albrext Dyurerning "Osvald Krel portreti" uch-



90



91



92

90. A.Dyurer. "Osvald Krel" portreti.

91. D.Velaskes "Vakx".

92. Karavadjo. "Kuy ilhom".



93



95



94

93. P.P.Rubens. "Izabella portreti".
94. Eduar Mane. "Fleyta chalayotgan bola". 1866.
95. Pol Gogen. "Taiti...". 1893.

ligi fonning qizil rangi yorug'da ham, soyada ham och yoki to'q qizilligicha qolishiga e'tibor bering (90-rasm). Musavvir go'yo narsa va buyumlarni shu'lalantirayotgandek tasvirlaydi, qahramonlar qomatlari atrosf fazoga qorishib ketmagan, balki noaniq jigarrang, qizil fonda gavdalantirilgan.

Rang va shakl bir butunlikka quyilib turadi, bo'yoqni yorug'lik bilan fazo bo'shlig'ida bir-biridan ajratib bo'lmay qoladi. Bellinidan Titsian va Tintoretto gacha bo'lgan davr - bu asl koloritning tuslarga aylanish davridir.

Agar XVI asr rangtasvirida rang umuman hayotni bildirgan bo'lsa, ularning qamrovi tobora osha bordi. Yangi aks tuslar paydo bo'la boshladи: Korovadjoda - yorqin-qizil, iliq-yashil, jigarrang-sariq, och havorangko'k, Velaskesda - qora atrofida ko'z ilg'amas yedirmalar, kulrang, oq, pushti ranglar va hakozo.


Rembrandt o'z palitrasini to'q tuslar bilan chegaralaydi, biroq unda rang yangicha jonlantirish va sirli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Uyg'onish davri rangtasvirchilar, masalan, Titsian rangdan asl hayotning bir ko'rinishi sifatida foydalanadi. Borokko davrida rang ko'p jihatlari bilan rangtasvir fantaziyasida estetik vazifalarni bajaruvchi bir element sifatida ishtirok etadi.

O'tmish ustozlar o'z asarlarini ifodalashda ko'rkmak, rang-barang uyg'unliklar, tuslar aralashmalari, murakkab texnik uslublarni asos qilib olganlar. Ular kuchli rang va tus kontrastlarini ishga solganlar. Shuningdek, ular istagan rang tuslariga erishish uchun oqizib ishlash (lessirovka) usulidan foydalanganlar.

XVIII asrga kelib rang bilan bog'liq estetik o'yinlar yanada antiqa va murakkab tus ola boshladи. Musavvirlar inson siyomasi, sochlari va kiyimlari uchun yagona rangning nozik tuslarini tatbiq etdilar. Oq, och sariq, och jigarranglar birinchi planga chiqdidi.

Turli g'oyalalar kurashi, rang va shakl o'rtasidagi qarama-qarshiliklar XIX asrga mansubdir. Bu davrda rang optik tadqiqotlarning asosiy manbasi bo'lib goldi. XIX asr rangtasvirchilar ayniqsa impression guruuhlar



96

96. V. Van Gog. "Doktor Gashe portreti" 1890.

97. I.K.Ayvazovskiy "Dengiz".

yorqin rangdan yorqinini ajratib, ostob nurlari taralishini ifoda etishni o'zlashtirdilar. Ular rangning optik birikmalari taassurotlaridan foydalangan holda rang kontrastiga ko'proqe tibor qilganlar va toza bo'yoglarni ishlata boshladilar.

Matiss, Gogen, Van Goglarga aniq kontur va jarangdor katta surkamalar mansub bo'ldi.

Matiss asl bo'yoglар saltanatida o'z palitrasiga - ranglar majmuasiga ega bo'ldi. U rasmdan qirqib olingen bo'laklarni hech qanday yordamchi tasvirlarsiz, ma'lum tekisliklarga rangtasvirning surtma usulida joylashtirishni kashf etdi. Matissning qog'oz yopishtirmalari rang bo'yicha bir butun bo'lib, ularni (gobelen) gilam tasvirga, matoga rang bosish va kitob bezaklariga aylantirish juda oson.

Gogen asarlarida rang tasviriy vazifani bajarmaydi, balki bezak, ramziy yo'nalishda bo'lib, qizil rang qum, pushtirang ot va ko'k rang daraxtlarni ko'rish mumkin.

Van Gog asarlarida go'zal kontrast rang majmualari ishtirok etgan. Biroq bu erda bo'yoglар bezak emas, balki psixologik omillar va kayfiyatlarga tayanadi.

Koloritni sezib, idrok qilish - juda muhim qobiliyatdir. I.Repin, V.Surikov, K.Korovin, M.Vrubel, F.Malyavin, O.Tansiqboyev, Sh.Abdurashidov va shu kabilar haqqoniy koloristlar edi.



97



98

I.Repin asarlari iliq ranglar - tillarang, sariq, qizillar bilan tasvirlangan rangtasvir koloritining yorqin ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

V.Surikov xush ko'rgan kolorit - havorang, ko'k sovuq ranglardan tashkil topgan edi. Uning ko'pchilik asarlari kumushrang koloritda tasvirlangan.

M. Vrubel esa kulrang - havorangni yoqtirgan.

F. Malyavinning ko'pchilik asarlari olovrang-qizil kolorit bilan ajralib turadi.



98. I.Repin.

"Burloqlar  
Volgada".

99. A.Alikulov  
"Samarcand  
bozori".

99



100

Ko‘pincha kolorit milliylik, tabiiylik, insoniylik xususiyatlari va ro‘zg’or buyumlarini aks ettirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bu xususda “Milliy kolorit” tushunchasi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ch.Ahmarov, R.Kent, M.Saryan asarlari bunga misoldir. Har bir musavirning o‘ziga mansub koloriti mayjud bo‘lib, bunga uning ishlagan tasviriy asarlari - umumiy palitrasи guvoh bo‘la oladi.

**Rangtasvir san’ati** - rang va yorug‘liklar uyg‘unligi san’atidir.



101



102



103

102. O'. Tansiqboyev. "Jizzax tog'lari".

103. Ch.Axmarov. Devoriy surat.

Vogelikni bo'yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir-birlariga ta'sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg'unligi asosida tasvirlamoq zarur.

Shunisi muhimki, tasvirda to'g'ri topilgan ranglar uyg'unligi, go'zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go'zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Musavvirlar amaliy-bezak ishlarida va rang uyg'unliklari ustida bosh qotiradilar, shu bilan birga ular narsa va buyumlar asl ranglarini ramziy yo'nalishlarga qarata oladilar. Naqshda kolorit uyg'unligiga barcha elementlar, rang kontrastlari va tus jilolari yordamida erishiladi.

Amaliy-bezak ishlarni bajarishda tanlangan rang, uning tasviriy bo'laklari, ritmik joylashuvlari, nimaga mo'ljallanganligi va nimadan yasalishi doimo nazarda tutiladi.

Dizayn yo'nalishida rang va shakl bog'lanishlari, bu narsaning qanday maqsadga mo'ljallanganligi, yorqinligi, jozibadorligi katta ahamiyat kasb etadi.



104




105

104. A.Abdullayev. "Do'ppilik" avtoportret.

105. S.Abdullayev. "Kamoliddin Behzod va Alisher Navoiy".

106. N.Qo'ziboyev. "Manzara".

107. S.Raxmetov. "Haykaltarosh Azamat Xotamov portreti".




106



107



108



109



110

108. Sh.Abdurashidov.  
Baxmal teraklari.

109. A.Mo'minov. Tog' manzarası.

110. I.Bure. Sherdor.  
Samarcand.

## 8.

# RANGLARNING NOMLANISHI



Rangtasvir asoslarini puxta egallash uchun rangshunoslik nazariyasini qunt bilan o'rganish va ranglarni to'g'ri nomlay olish zarur.

Qadim ajdodlarimiz rang nomlarini buyum, narsa, ashyo, o'simlik, gul va mevalar nomlari bilan atashga harakat qilganlar va bugungi kungacha bu nomlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.


Rangtasvirning ilmiy negizi rangshunoslik fani deyish mumkin. Rangshunoslik ilmi musavvirlar uchun zarur bo'lган ranglarning tabiatda namoyon bo'lishi va tarqalishi, ularning o'zaro ta'siri, atrof-muhit ta'sirida o'zgarishlari hamda bo'yoq tayyorlash va undan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

Tabiatda uch asosiy rang mavjud bo'lib, ular sariq, qizil va ko'k ranglardir. Ularning birikuvlari natijasida turli tuslar hosil bo'ladi.

**Bo'yoq** - mexanik yoki kimyoiy usul jarayonida tayyorlanib maxsus idishlarda saqlanadi. Bu idishlarda bo'yoq rang tuslari yozib qo'yilgan bo'ladi. Odatda ularning joylanish tartibi quyidagicha:

1. Limon rang.
2. Sariq rang.
3. Malla rang.
4. To'q sariq rang.
5. Oltinsimon sariq.
6. Zarg'aldoq.
7. Qizg'ish malla.
8. Sarg'ish jigarrang.
9. Och qizil.
10. Qirmizi.
11. Qizil-qirmizi.
12. Yorqin qizil.
13. Binafsha rang.
14. To'q ko'k.
15. Ko'k.
16. Havo rang.
17. Yashil.
18. Zumrad.
19. Maysa yashil.
20. Mosh rang.
21. To'q jigarrang.
22. Och jigar rang.
23. Qizg'ish jigarrang.
24. Qora.

Bu bo'yoqlar, mavjud bo'lган barcha ranglarga ega. Biz badiiy tasvirni ifodalashda bu kabi rang tuslaridan ko'plab foydalanamiz. Ranglarni bir-biriga aralashtirib kerakli nozik tuslarni hosil qilamiz. Shu bois rang va bo'yoqlar xususiyatlarini o'rganishda ularni maxsus guruhlarga ajratib qaraymiz.





112. Rang tuslari doirasi.

Havo rang va sariq															Sariq qizil qora									
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Havo rang															Mall'a			Jigai rang						
Och havo rang															To'q malla			To'q jigai rang						
To'q havo rang																		Qizg'ish						
Zangori																		Qo'ng'ir						
Och qizil																		Kul rang						
To'q zangori																		Qora						
To'q ko'k																								
Tutaqi																								
Zumrad rang																								
Zaynovi																								
Bargi karam																								
Sabzrang																								
Ochi yashil																								
Yashil																								
To'q yashil																								
Mosh rang																								

## 9.

# AMALIY MASLAHATLAR

Rangtasvir asarini yaratishda ma'lum tartibga riosa qilmoq zarur. Odatta, musavvir tasviriy asar yoki devoriy surat ustidagi ishni uncha katta bo'Imagan o'Ichamdag'i bir qancha eskiz va chizgilarni bajarishdan boshlaydi. U, bu eskizlar yordamida o'z ijodiy fikrini aniqlab oladi.

Shundan so'ng musavvir bo'lajak ijodiy asarini tasvirlay boshlaydi. U, buni bajarishda qalamdan, ko'mirdan yoki suyultirilgan bo'yoqdan va ingichka mo'yqalamdan foydalanishi mumkin. Asarni eskiz-chizgisini boshqa tekislikka ko'chirish zarur bo'lib qolsa, xitoy qog'ozni yoki kartondan foydalanadi. Ba'zan musavvirlar ijodiy ishning bu bosqichini chetlab o'tadilar. Dastlabki qalam tasvirini tushirmsandan, bevosita bo'yoqlar bilan chiza boshlaydi.

Bo'yoqlarni tekislik yuzasiga surishning ko'p usullari mavjud, ba'zi musavvirlar lessirovka usulidan foydalanishi asfal ko'radilar va quruq bo'yoqli qatlam ustiga nozik yorqin ikkinchi qatlamni surishadi. Boshqalari zarur rang yechimiga birdaniga bir marta bo'yash orqali erishadilar. Uchin-chilar esa surkama usulda mo'yqalam tortib bo'yoq beradilar. Musavvir bir vaqtning o'zida chizmatasvir, kompozisiya, shakl, hajm chiqarish, fazoviy xususiyatlarni berish va rang uyg'unliklari ustida ishlashi mumkin.



113. J.Umarbekov.

"Qo'qondagi  
choyxona".

113



114a



114b

114a. Ch.Ahmarov. "Shoirlar davrasi". 1969.

114b. Ch.Ahmarov. "Shoirlar davrasi". 1969.  
Lavha.

Buning uchun u, kuchli kuzatish xotirasiga, qalam bilan aniq chizish qobiliyatiga, kompozitsiya tasavvuriga, ranglarni his qilish fazilatiga ega bo‘lmog‘i kerak.

Aksariyat musavvirlar o‘z ijodiy ishlarini umumiylididan qismlarga bo‘lib ishlashni afzal ko‘rishadi. Ular buyum hajmini nazarda tutgan holda, rang ustida ish olib boradilar. Shundan so‘ng tasvir rang uyg‘unliklari va koloritini aniqlaydilar. Oxirgi bosqichni ular, yana umumlashtirish bilan tugalaydilar.

Asarning yaxlitligiga erishish uchun ortiqcha qismlarni olib tashlash, kontrastni yumshatish, bosh g‘oyani bo‘rttirish kerak bo‘ladi.

Chingiz Ahmarov o‘zining ijodiy asarini yaratishdan oldin katta tayyorgarlik ishlarini amalga oshirar edi. Ko‘p sonli tasviriy etyudlar musavvirlarining ijodiy izlanishlarini anglab etishga imkon beradi.

O‘quv jarayonida rangtasvir kompozitsiyasi ustida ketma-kethik tarbibida bilan ishslash talab etiladi. Rangtasvir sirlarini bilishga mohir musavvirlarimiz fikr-mulohazalari yordam beradi.

Rangtasvirchi musavvirlar mato, qog‘oz, karton, yog‘och va shu kabi tekis yuzalarda olam go‘zalligini ranglar jilosida aks ettiradilar.

Odatda tekislik yuzasi maxsus qorishmalar yordamida gruntlanadi, ya‘ni yuza bo‘yab chiqiladi. Bunda turli guash, suvbo‘yoq, tempera, moybo‘yoq va hakozolardan foydalilanildi.

Bo'yoqlar yuza tekisligiga turli kattalikdag'i uchli, yapaloq, yumaloq va shu kabi shakldagi mo'yqalamlar yordamida suriladi. Ba'zida buning uchun mastixin, pichoq, hatto barmoqlardan ham foydalanadilar. Biroq tasviriy san'at asarlarini yordamchi vositalar bilan emas, balki maxsus asboblar da yaratgan afzalroqdir. Chizish texnikasi ko'pincha bo'yoqlar, eritgichlar va asboblarning mosligiga qarab tanlanadi.

O'rta Osiyoda, qadimdan, ranglar haqidagi ta'limot kitob miniyatyrasi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlilik hunari rang tamlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shu bois musavvirlar rang tayyorlash sirlarini o'rghanishgan.

XVIII asrgacha musavvirlar va ustalar bo'yoqlarni o'zlari tayyorlar edilar. Shogirdlar esa toshlarni mayda kukunga aylantirib, uni yelim, o'simlik yog'i yoki tuxum bilan aralashtirib bo'yoq tayyorlash sirlarini o'rghanar edilar.

Hozirgi davrda zamonaviy sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli-tuman bo'yoqlar mavjud.

Rangtasvir bo'yoqlari maxsus o'z nomlariga egadirlar va biz ularni qanday kimyoviy, tabiiy elementlardan tayyorlanganligini bilib olishimiz mumkin.

Har qanday bo'yoqning asosida pigment yotadi. **Pigment** mayin maydalangan kukundir. Odatda bo'yoqning nomi uni tayyorlash jarayonida qanday moddadan foydalilaniganiga qarab ataladi. Masalan, rangli moybo'yoqlar uchun zig'ir yog'i yoki boshqa yog'lar asos bo'lib xizmat qiladi. Suvbo'yoq, guash yoki temperalar – elimli bo'yoqlar deyiladi. Qadimda tempora bo'yog'ini tuxum sarig'idan tayyorlashgan.




115

115. Mo'yqalamlar.

116. Suvbo'yoq, guash, moybo'yoq.



116



## Rangtasvirda suvbo‘yoq va guash bo‘yoqlari

Rangtasvir mashg‘ulotlarini boshlashdan avval quyidagi asbob-uskunalarini tayyorlab olish kerak.

Bo‘yoqlarni aralashtirishda palitradan foydalanish qulaydir. U har xil materialdan yasalgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, plastik likopcha va oq qalin qog‘ozdan foydalanish ham mumkin.



117. Rangtasvirda ishlataladigan asbob-uskunalar.

## Naturadan rangtasvir ishlash jarayoni

Naturadan rangtasvir ishlash jarayonining o'z qonuniyatlari mavjud bo'lib, bu ishni tartib bilan olib borish talab etiladi. Ketma-ketlik tartibini anglagan holda bajarilgan ish mahsuli muhim ahamiyatga egadir. Ishni nimadan boshlash, uning o'rtaida qanday talablarga javob berish va qay o'rinda tugallash kerakligini yaxshi bilmox zarur. Rangtasvir bajarilishi zarur bo'lgan quyidagi talablar mahsulidir: 1) naturada mujassam umumiylorug'-soya, rang-tuslar va mushtarak ranglardan yorug'-soyali, rang-tusli uyg'unliklar mavjud bo'lgan katta bo'laklarni aniqlash; 2) yorug'-soyali, rang-tusli uyg'unliklar katta bo'lagida, yorug'-soyalar va rang yo'nalishlari, ayrim narsa sirtiga ranglar bilan muttasil ishlov berish; 3) umumlashtirish, butun tasvirning yaxlitligiga erishish, kompozitsiya markazini ajratib ko'rsatish.




118

118. Islomov Oybek. Natyurmort.

Respublika tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi

Qo'yilgan talablar mohiyatini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rangtasvirning to'laqonli ifoda etilganligini yorug'-soya, rang-tus kontrastlari, naturaning asosiy rang bo'laklariga o'zaro uyg'unliklari bilan belgilanadi. Bu jarayon natyurmortda-fon bilan stol yuzasi, qo'yilgan majmua buyumlari orasida, manzarada esa osmon bilan yer yuzi va daryosuvining sathi, shuningdek oldindi plan, o'rta plan va oxirgi planlar orasida sodir bo'ladi. Agar asosiy rang-tuslar uyg'unliklari etyudda haqqoniy aks etmas ekan, keyinchalik zo'r berib ishlangan qismlar, refleks, buyum sirlari yoki manzara maydonlariga berilgan ranglar mozaikasi rangtasvirn-



119

ing haqqoniyligini bera olmaydi. Chizgi suratlarda ham aynan shu talablar bajarilishini yaxshi bilasiz: birinchi galda buyum konstruksiyasining asosiy mutanosibliklarini (proporsiya) ifodalovchi umumiyligi katta shakl chizib olinadi. Chizayotgan kishi naturani umumiyligi va yaxlit tasavvur qilar ekan, bu vazifalardan chetlab o'ta olmaydi.

Rangtasvirni boshlashdan avval naturaning umumiyligi rang ifodalarini diqqat bilan o'rganib olish zarur. 5-10 daqqa vaqt sarflab bo'lса-da naturaning asosiy rang uyg'unliklarini kuzatib, uni anglab olish zarur: eng to'q va eng och rang dog'larining qaerda joylashganligi, rang tuslarining kuchdag'i farqlarini kuzatish shu jumladadir. Masalan, sariq olmalarning sonidagi sariq matoga solishtirganda, ularning songa nisbatan ochroqligi, sariqligi esa kuchliroq ekanligini tasavvur qilish zarur. Shunday ekan, natura mafmuasi narsa-buyumlarining asosiy rang tafsilotlari, ranglarning uch xususiyati bo'yicha namoyon bo'ladi.

Ayrim ob'yektlardan umumiyligini qidirib topish, naturaning qator ikkinchi darajali alomatlari qismlaridan rassomni xalos etadi va undan faqat rang munosabatlari bo'yicha talab etilgan vazifalarga, yetakchi rang, rang va tus uyg'unliklarini keltirib chiqarish, umumiyligi rang-tuslar uyg'unliklarini va rang holatlariiga e'tiborni jalb qilishni talab etadi. Shu tariqa naturada ranglarning joylashishi qonunityatlarini egallashga, etyudning keyingi qismaliga ishlov berishga zamin yaratiladi.



120

Ranglar uyg'unligini aniqlab olish uchun avvalo, naturadan eng yorqin va intensiv rang bilan eng to'q ranglar topiladi, qolgan barcha amallarni ularga taqqoslab aniqlangani afzal. Keyingi rang-tuslar kamroqligi, yorqinligi, och-to'qligiga qarab topib borilaveradi. Eng so'nggida murakkab rang hisoblangan kulrang va uning tuslari beriladi.

Boshlang'ich rang-tuslar har qachon ham eng och va eng to'q qilib olinmaydi. Eng to'q ranglar ham har doim uchravermaydi. Masalan, natyurmortga qo'yilgan qizil pomidor uchun qizil kadniyi olmasdan, uning yorqinligini ehtiymol 50% ga pasaytirish zarur bo'ladi. shuningdek bahor fasli yashil olamni tasvirlar ekansiz, yorqinlikni oshirib yuborishdan ehtiyy-

119. Ye. Springis. Natyurmort. 1965.

120. O'quv natyurmorti

Respublika rassomlik kolleji



121

121. Z. Islomshayxov. "Natyurmort".  
122. O'quv natyurmorti.

Respublika rassomlik kolleji.



122

60

ot bo'lish kerak, aks holda etyud ola-bula bo'lib qolishi mumkin. Shu bois, ishui boshlashdan oldin umumiy rang-tuslar, ularning kuchi, qanaqa rang gammasiga mansubligi, qay darajada ochroq yoki to'qroq ekanligini aniqlab olinadi. Boshqacha qilib aytganda, naturaning umumiy rang-tuslari holati aniqlanadi. Bu holatni saqlab qolish uchun balkim, vazminroq ranglardan foydalanish maqsadga muvofiq kelar. Basharti ishni biroz ochroq yoki to'qroq rang-tuslar bilan boshlar ekansiz, palitranning butun kuchini oq bilan eng to'q. eng yorqin bilan keskin ranglarni safarbar qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Rang-tuslar uyg'unliklarini qidirib topishda umumiyligidan qismlar tomon bormoq lozim. Avvalambor asosiy ob'yektlar oralig'idagi rang-tuslar farqi aniqlanadi. Masalan, natyurmortda fon bilan stol yaltirab turgan joyi orasidagi farqlar bilan taqqoslab qidiriladi. Manzara tasvirlashda birinchi galda osmon bilan er sathi, ayrim narsalarning bir-birlariga va umumiyliga uyg'unliklari aniqlanadi. Portret va odam qomatlarini tasvirlash ham shu tariqa boshlanadi.

Rassomchilik amaliyotida «katta yorug», «katta soya», «katta sirt», «katta rang uyg'unliklari» degan kasbiy tushunchalar mayjud. Mazmunan, natura ob'yektlarini yaxlit ko'rish va yaxlit tasvirlash demakdir. Naturani yaxlit idrok etishda uning yoritilgan yaxlit bo'lagi ichida mayjud rang-soyalar, yaxlit soya qismiga nisbatan tenglashadigan biror joyi bo'lmaydi. Shuningdek bu tushuncha «o'zining soyasi» (xususiy soya) va «tushuvchi soya» larga ham tegishlidir: chunonchi soya yarim soyaga nisbatan shubhasiz kuchlidir, yarim soya esa tasvirning yoritilgan qismi bilan kuch jihat-



123

dan teng bo'lmaydi. Soya ichidagi refleks yarim soyaga nisbatan ochroq bo'la olmaydi va u xususiy soyaning umumiyligi rang-tuslari kuchiga bo'ysunadi. Buyumlar sirtlarida yaxlit rang-tuslar, yorug'lik kuchining to'g'ri taqsimoti, tasvirning yaxlitligi va haqqoniyligini aks ettiradi. Katta rang uyg'unliklari va shu kabi barcha omillar natura tafsilotini berib turgan koloritga mos ravishda olib boriladi. Kam tajribali, naturaga qarab chizishni yetarlicha mashq qilmagan rangtasvirchilar natyurmort, manzara, portret va shu kabilardan etyud ishlar ekan, natura xarakteriga monand kolorit va rang uyg'unliklarini har doim ham haqqoniyliga bera olmaydilar. Natura bilan ishlar ekansiz, uning har bir qism-bo'laklarida mavjud kolorit uyg'unliklarini tushungan holda, rang-tuslar tafsilotlarini keltirib chiqarishingiz zarur. O'xshash kolorit uyg'unliklarini sinchiklab topgach, tasvir yuzasida ham ma'lum bir rang yoki uning och-to'q, yorqin-bo'g'iq tusini qidirib aniqlanadi. Yaqqol tovlanayotgan ranglar, masalan qizil va ko'klarning o'zaro munosabatlarini idrok etish birmuncha mushkullik tug'diradi. Faqatgina tajribali rassomlar naturadan qizil va ko'k ranglarning tuslarini ko'rib, palitrasida, manzarada yuz berayotgan garmoniyaga mos ranglarni osonlik bilan topa oladilar. Naturada rang-tuslar holati, barcha ranglar koloritining yaxlitligini tushunib, uning mohiyatini anglab olmoq zarur.

Yirik planlar rang-tus munosabatlari aniqlab olin-gandan so'ng, yorug'-soya o'rirlari belgilanadi. Buyumning yaltiroq joyi bilan rang-tuslar, yorug'lik, soya, yarimsoya, xususiy soya, tushuvchi soyalarning o'zaro farq va munosabatlari yordamida har bir narsa yoki buyumning hajm-shakllari keltirib chiqariladi.



124

123. J. Basharov. Natyurmort.

124. O'quv natyurmorti.

Respublika rassomlik kolleji.

Shuni yodda tutmoq zarurki narsa-buyumning har bir qismidagi rang, atrofdagi rang-tuslar, och-to'qliklar, ranglar to'yinganligi, masofa, yorug'likning tushish burchagi va turli ta'sirlar evaziga hosil bo'lgan reflekslar, kontrastlar ta'sirida o'zgarib boradi. Bir narsaning turli bo'lagida joy-

lashgan ikki qismi, yorug'lik, soya, yarimsoyalarga yaqin joyda bir xil sharoitda yoritilayotgan bo'lmaydi. Shu bois narsa-buyumlarning ikki qismi ranglari bir xilda bo'lmaydi. Rangni palitrada bir marotaba topib olib uni faqat ochartirib yoki to'qlashtirib butun narsani tasvirlash mumkin emas, balki narsa-buyum yuzasining har bir qismi uchun maxsus rang tuslarini qidirib topish kerak bo'ladi. Asl ranglar (buyumlarning o'z rangi) yarimsoyalarning asosiy yoritgichlar va aks yorug'lar ta'sirida juda kam o'zgarishlari bois, ular ichida ko'zga yaqqol ko'rinish turadi.

Xajmli narsalar va natura majmualarining rang-barangligini yanada kengroq anglash uchun shuni yodda tutmoq joiz-ki, yondosh iliq ranglar kontrastlari ta'sirida ko'zga sovuq rang-tuslar ko'rinishi. Bir rang qo'shimcha ikkinchi rangni ifodalab turadi. Buning natijasida naturada mavjud sovuq ranglarga doimo iliq ranglar hamroh bo'lib yuradi. Agar jism sirtida olov rangni ko'rayotgan bo'lsak, uning yonida, albatta havorangni ham uchratamiz.

Iliq va sovuq rang-tuslar uyg'unliklarida bajarilgan tasvir har bir jismning jarangdorligini oshirib, naturaning tabiiy ko'rinishini ifodalab beradi.

Tasvirlanayotgan narsalar, buyumlarni bir-biriga o'xshashligi yoki farqlarini taqqoslab kuzatish ishni bir munkha yengillashtiradi. Masalan, havorangli narsani boshqa bir, tus jihatdan boshqacha bo'lgan havorangli narsaga solishtirib ko'rsak, bizning sezgi-idrokimiz yanada jiddiylasha boradi va ularning rang-tuslarini, farqini aniqroq belgilay olamiz.

Narsa-buyumlarni rang jihatdan taqqoslar ekanmiz, yana bir vaziyatni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Mavjud rang kontrastlari ta'sirida kulrang tuslar iliq yoki sovuq bo'lib ko'rinishi. Kulrang iliq ranglar orasida sovuq, sovuq ranglar orasida iliq tusda namoyon bo'ladi. Shu bois narsa-buyumlar tuslarini aniqlashda rangsizlarni rangsizlar bilan, iliq ranglarni iliq ranglar bilan, sovuq ranglarni sovuq ranglar bilan, ochlarni ochlar, to'qlarni to'qlar bilan taqqoslash yaxshi samaralar beradi.

125. P'er Ogyust Renuar. "O'tloqda".


126. O'quv ishi "Bahor".



125



126



127




128

Ishning nihoyasida natyurmort, manzara yoki portret ayrim joylarida talab etilgan yorqinlik kelib chiqmadi, yorug'-soya, ranglar bo'yicha haddan ziyod kuchli bo'lib, umumiyl yetakchi rang gammasidan «otilib» chiqib goldi. Ba'zan soyalar ichidagi narsalar ola-bula bo'lib ko'zga tashlanib qoladi. Bunday vaziyatda barcha muammolar umumlashtirish yo'li bilan echim topadi: qismlarning keskin chegaralari yumshatiladi, ayrim narsaning rangini bo'g'iqroq yoki kuchliroq qilib beriladi, ba'zi joylar ochartiriladi yoki to'qlashtiriladi. Ish jarayonida, qarab, yaxlit ko'rish-malakali rangtasvir asosining eng asosidir. Shu malakanegallagan rassomgina, naturani obrazli ko'rish, u yerdan asosiy narsani topa olish, har bir qism-bo'laklarning o'z joyini topish, tugallik darajasi, kompozitsiya markaziga bo'ysundirish kabi amallarni haqqoniy uddalay olishi mumkin.

127. A. Abdullayev.  
“Lutfixon Sarimsoqova surati”. 1970 y.

128. A. Fonvizin. “Portret”. 1964 y.



129

129. T. Geysnboro. "O'tin yig'uvchilar".

# AMALIY MASHG'ULOTLAR

## Natyurmort

**Natyurmort** - tasviriy san'atning o'ziga xos mustaqil janridir. "Natyurmort" (nature morte) fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "jonsiz tabiat" degan ma'nioni bildiradi.

Natyurmortda ko'pincha uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, sabzavot-mevalar, gullar, parrandalar va shu kabi narsalar tasvirlanadi.

Natyurmort san'ati inson maishiy hayotining zarur buyumlari dunyosini aks ettiradi.

Naturmort san'atining ilk namunalarini qadimgi Misrda devorlarga ishlangan suratlarda, qadimgi Yunonistonning mozaikalarida uehratish mumkin. Xitoy san'atida X-XI asrlarda natyurmort mustaqil janr sisfati da rivojlangan. Bu davrda ijod qilgan musavvirlardan Chiao Chan, Suy Bo ajoyib asarlar yaratganlar.

Yevropada natyurmort san'ati XVII asrga kelib Giollandiya, XVIII asrda Fransiya tasviriy san'atida keng tarqaldi.

130. Jan Batist Sharden.

"San'at ashyolari natyurmorti".





131

131. Sh.Qo'ziyeva. Gullar natyurmorti.

132. M.Toshmurodov. "Natyurmort".

Golland musavvirlaridan Piter Klass, Yan Van Geysum, F. Snayders va fransiyalik Jan-Batist Shardenlarning natyurmort asarlari rangtasvir san'atining nodir namunalarini ko'ramiz.

Rus musavvirlari I.Xruskiy, I.Repin, V.Serov, I.Mashkov, N.Konchalovskiy va boshqalarning natyurmort asarlari namuna bo'lib hisoblanadi.

O'zbek musavvirlari R.Ahmedov, J.Umarbekov, A.Yunusov, S.Abdullayev, L.Salimjonovalar natyurmort janrida samarali ijod qilmoqdalar.

Natyurmort tuzish - ijodiy ishdir. Unda musavvirning didi va layoqati, kompozitsiyani fikrlay olish madaniyati namoyon bo'ladi. Tasodifan terib qo'yilgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi.

Mazmunli natyurmort asari yaratish fikri musavvir xayolida uzoq davom etgan kuzatishlar yoki biror narsadan ta'sirlanish natijasida paydo bo'lishi mumkin. Ijodkorning ko'z o'ngida bo'lajak asar — natyurmort gavdalanadi. Unga mos narsalar tanlanib, xomaki eskizlar chizildi. Eskizlar asosida kompozitsiya yaratiladi.

1. Mavzu tanlash.
2. Natyurmort mavzusiga mos narsalar va gazmol matolar tanlash.
3. Buyumlarning shakl tuzilishi, rang va tuslarini bir-biriga monand joylashtirish.
4. Narsalarning katta-kichikligi, hajmi, modeli va yoritilish xususiyatlariga ijodiy yondoshish.



132



Natyurmortlar tuzilish maqsadiga qarab o'quv va ijodiy bo'lishi mumkin. O'quv natyurmortlari ijodiy natyurmordan, albatta, farq qiladi. O'quv natyurmorti ma'lum dastur talabini o'rghanish uchun bajariladi.

Rangtasvir asari buyumlarning barcha xususiyatlari, shakli va rangi, qattiq-yumshoqligi, sirtining yaltiroq yoki xiraligiga qarab tasvirlanadi. Haqqoniy tasvirlangan natyurmort asaridan mevaning mazasi, gullarning hidi kelib turadi. Bunga erishish uchun rangshunoslik nazariyasini, bo'yoqlarning xususiyatlarini yaxshi bilmoq kerak, tasvir va natura o'rtasida nisbat-uyg'unliklarini to'g'ri ifodalay olish talab etiladi.

Natyurmortda narsa, buyumlarning yorug'-soya kuchlarini farqlashni o'rghanishda, bir xil rangdan foydalaniб (grizayl) usulida bajarish maqsadga muvofiqdir.

Grizayl usulida akvarel, guash, moybo'yoq va boshqa materiallardan foydalanish mumkin. Grizayl uchun odatda to'q ranglar tanlab olinadi.

Natyurmortning qalam eskiziga muvofiq, narsa va buyumlarning chiziqli rasmi bajariladi.

Qog'oz yuzasida kompozitsiya aniqlab olingandan so'ng eng yorug' va eng soya joylari aniq chegarasi belgilab chiqiladi. Basharti rasm kir bo'lib qolsa uni yangi qog'ozga biror yoritish moslamasi orqali ko'chirib



133. Grizayl usulida ishlash.

I.Suhbonov bajargan



134. Natyurmort ishlash  
bosqichlari.  
I.Subhonov bajargan



135

olish mumkin. Bu bosqichning vazifasi, narsaning eng yorqin joyi, soya, yarim soya, refleks, buyumning tushuvchi soyalari aniq chiziqlar vositasida belgilab olishdan iborat.

Natyurmortda rang munosabatlarini aniqlash. Narsaning asl rang tuslarini toza-yorqin birligi qatlami bo'yaladi. Yuzada har bir buyum shakli mayda bo'laklarsiz umumiylay xaxlit hajmi bo'yab boriladi. Suvbo'yoq bilan ishlashda oq bo'yoq sifatida qog'ozning o'zidan foydalaniadi.

### **Qaytarish uchun savollar:**

1. Natyurmort majmuasiga qanday narsa va buyumlar kiradi?
2. Natyurmort janri nimani aks ettiradi?
3. Natyurmort janri qachon paydo bo'lgan?
4. Natyurmort mazmunini ochib berishda buyum, ashyolarning roli qanaqa?
5. O'quv mashg'ulotlarida natyurmort qanday rol o'ynaydi?

135. O.Qozogov, "Sharqona natyurmort".

6. Natyurmort uchun narsa-buyumlar qanday tanlanadi?
7. Natyurmort uchun narsa va buyumlar majmuasi qanday tuziladi?
8. Rang munosabatlarini aniqlashda qanday xususiyatlar nazarda tutiladi?
9. Natyurmort ustida ishlashda qanday bosqichlar mavjud?
10. Ishni nimadan boshlash kerak?
11. Ikkinchi bosqichda qanday ish amalga oshiriladi?
12. Natyurmortda narsa va buyumlar hajmi va fazoni tasvirlashga qanday erishiladi?
13. Natyurmort ishslashning oxirgi bosqichi nimadan iborat?



136

### Vazifa:

**1-mashq.** Narsa va buyumlar guruhini tasvirlang, natyurmort qo'yishning umumiy tus va rang holatini, iliq va sovuq ranglarning bir-biriga ta'sirini aniqlang. Natyurmort qo'yishda yaqin masofada bir-biriga yaqin joylashtirilgan kontrast rangli, shakl bo'yicha turlicha buyumlarni tanlash mumkin.

**2-mashq.** Rang jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan, yuza tekisliklari har xil (yaltiroq yoki xira mato, yengil yoki og'ir burmali mato) bir necha buyumdan tashkil topgan natyurmortning rang yechimini toping. Bu natyurmortda masofalar aytarli uzoq bo'lmasa-da, ayrim planlarni belgilash mumkin.

**3-mashq.** Naqsh gulli matolar ishtirokida natyurmort ishlang. Mato-da tax chiziqlari, burmalar bo'lishi mumkin.

**4-mashq.** Meva-cheva, sabzavot va gullardan jamlangan natyurmortni "asl rang" usulida tasvirlang.

136. Natyurmort ishslash bosqichlari.  
P.Shobaratov bajargan.



137



138



137. Oquv natyurmorti.

Respublika rassomlik kolleji.

138. Oquv natyurmorti.

Respublika rassomlik kolleji.

139. O.Qozoqov. "Gullar" natyurmort.

139

## Manzara

Tasviri san'atda tabiatni tasvirlash manzara janri deyiladi. Manzara-chi musavvirlar o'z asarlarda ifodalagan obrazlar orqali tabiatni sevishga, e'zozlashga va bu go'zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar. Manzara faqatgina tabiat go'zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g'oya va fikrlarni ham ilgari suradi. Ijodkor-musavvir har doim tabiatni sinchkovlik bilan o'rganmog'i va tafakkurini o'stirib bormog'i zarur.

Manzara ustida ish boshlar ekansiz, tasvirga olmoqchi bo'lgan tabiatning o'sha qismi holatini yaqqol his qilmoq zarur. Manzaraga tushayotgan yorug'likning to'g'ri aks ettirilishi uni bir qadar jonlantirib, ta'sirchanligini oshiradi.

Manzarada fazoni idrok qilishning bu xususiyatlari bois, u planlar deb yuritiluvchi bo'laklarga ajratiladi. Odatda manzaraning uch plani belgilanadi, biroq u kompozitsyaning tuzilishiga qarab bundan ko'proq yoki kamroq bo'lishi ham mumkin.

Ranglar birinchi planda eng to'q, ikkinchi planda ochroq rangga kirib, oqish tus oladi va uchinchi planda uzoqliklar havorangga aylana boradi. Havoning tumanli va bulutli paytlarida bu farqlar quyoshning charog'on paytiga nisbatan yanada sezilarliq bo'ladi.

Tabiat o'zining boy rangi va poyonsiz tuslari bilan bizni lol qoldiradi. Bu rang-barangliklar manzaraga xos xususiyatlarga ega bo'lgan rangga umumlashadi va koloritni belgilab beradi. Asar koloriti inson histuyg'ulariga zamin yaratib beradi.

Kolorit manzarada boshqa janr asarlariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etib, kompozitsyaning asosiy g'oyasini yoritib beruvchi omillardan biridir.



140. Z.Islomshayxov.  
"Barglarning  
to'kilishi".

## Manzara ishlash jarayoni


Etyud ishlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan suvbo'yoq surtmlaridan keng foydalanish mumkin.

Rang qatlamlarining tabiiy notejisligi, bo'yoqning tasvir shakliga mos ravishda oqib yoyilishi, suvbo'yoq go'zalligini yanada ko'proq namoyon qiladi. Quriy boshlagan rang qatlami bo'ylab "quruq" mo'yalam usulida chiziqlar yuritib, shakl ma'nodorligini yanada oshirish mumkin. Etyudda fazoni bir bo'yoq rangini ikkinchi rangga qo'yib yuborish yo'li bilan tasvirlash mumkin. Bunda ranglarning bir-birlari bilan nozik birikuvlari, uzuksiz tekis kirishuvlarni keltirib chiqaradi.

To'q rang bilan yengil surkama jilolar yordamida etyudning rang yechimi keltirib chiqariladi. Agar etyud ma'nosi muhim mavzuga mo'ljallangan bo'lsa, tasvirni "quruq" mo'yalam yordamida aniqlash-tirish, biror joyini kontrastlashtirish, nimanidir kuchaytirish va nimadandir voz kechish mumkin.



141. Manzara ishlash bosqichlari  
M.Toshmurodov.  
"Bahor" etyudi.



142

Tabiat obrazi ta'sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda etish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq yoki sovuq, ochroq yoki to'qroq, yaqqol yoki umumlashgan tarzda bajarish mumkin. Jonli tabiatni his qilish, uning g'oyat ko'r kamligini ilg'ay olish, shuningdek qiziquvchanlik har bir etyud yechimiga mezon bo'ladi.

Chunonchi, tabiat har qachon ijodiy izlanishlar, go'zallikni his qilib didni o'stirish manbai bo'lib kelgan.

O'rol Tansiqboyev yaratgan manzara asarlari, nafaqat O'zbekistonda, balki jahon manzara san'ati durdonalari qatoridan o'rin olgan.

142. Manzara ishlash bosqichlari.  
M.Toshmurodov. "Kuz" etyudi.



143



144

143. A.Jalolov, "Xumson".

144. M.Toshmurodov, "Qish".

### Qaytarish uchun savollar.

1. Manzara janri turlari qanday ta'riflanadi?
2. Manzara tasvirlashning asosiy sharti nimada?
3. Manzarada masofa qanday vositalar yordamida beriladi?
4. Manzarada necha plan belgilanadi?
5. Ranglar manzaraning turli planlarida nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
6. Manzara tasviri deb nimaga aytildi?
7. Manzara etyudi deb nimaga aytildi?
8. Manzara etyudi kompozitsiyasida tanlangan ko'rinish qanday rol o'ynatdi?
9. Qarash nuqtasi qanday yo'l bilan to'g'ri tanlanadi?
10. Manzara etyudi ustida ishslash qanday bosqichlarga bo'linadi?
11. Manzaraning ayrim ko'rinishlarini chizib olish qanday ahamiyatga ega?



145

### Vazifa:

**1-mashq.** Manzaraning ayrim ko'rinishlari, barg shakllari, ranglari, o'simliklarning ayrim butoqlarini qalam, pero yoki birorta rang bilan mo'yqalamda chizib oling.

**2-mashq.** Osmon fonida bir ko'rinishli (daraxt, butoq va shu kabilalar) manzara etyudi ishlang. Manzaraning umumiy shakli, xususiyatlarni berishga harakat qiling, yorug' va soya joylar ranglarini ajrating. Daraxt, yer va osmonning umumiy rang munosabatlarini aniqlang.

**3-mashq.** Yaqin masofadan manzara etyudi ishlang. Shunday ko'rinishlar tanlangki, unda chiziqli va havo perspektivasi yaxshi namoyon bo'lsin. Masalan, daraxtni uy yoki yo'l fonida tasvirlash mumkin.

**4-mashq.** Planlari yaqqol ajratilgan uzoq masofali manzara etyudini ishlang. Turli planlardan darak beruvchi, turli uzoqliklarda joylashgan narsa va buyumlar ranglarining o'zgarib borishiga diqqatni jalg qiling.

**5-mashq.** Yorug'lik xarakteri aks etgan manzara etyudi ishlang. Bu etyudni bajarishda kunning yorug'lik holatiga diqqatni qarating: havo quyoshli yoki bulutlimi, quyoshning botish pallasimi yoki g'ira-shirami va h.k. Rang yechimlari ko'magida tabiatning yorug'lik holatini ifodalang.

## Portret

Portret insonning shunday tasviridirki, unda nafaqat tashqi qiyofa, balki ichki dunyo va psixologik xususiyatlar ham ochib beriladi.

Portret biror shaxsga xos bo'lgan tashqi qiyofani, uning ichki dunyosi, xarakterini aks ettirish bilan birga, ma'lum tarixiy davrga xos fazilatlarni ham siymolarda haqiqoniy ifodalab beradi.

Insonning ichki kechinmalarini uning yuz tuzilishi, nigohi, yurish-turishi va kiyimida ko'rish mumkin.

Portretning turli ko'rinishlari mayjud:

**samimiyl**, musavvir tor doira uchun ma'lum bo'lgan insonga xos xususiyatlarni yanada bo'rttirib, oshkora ifodalaydi;

**tantanavor**, ommaviy joylarga mo'ljallangan mashhur kishilar portretlari. Ularda tasvirlangan insonning ko'rsatgan xizmatlari, jamiyatdagi o'rni, unga monand libos, interier, buyumlar ifodalanadi;

**ijtimoiy**, keng doiradagi hamjamiyat sinfining turmush tarzi;

**psixologik**, unda xarakter yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etiladi.


Kompozitsiyaviy tuzilishi jihatidan portretlar ko'krakkacha, belgacha, tizzagacha, butun qomat va ko'p qomatli bo'lishi mumkin.

Musavvir o'zining portretini ishlagan bo'lsa, u avtoportret deb nomlanadi va shu kabi asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o'ziga xos murakkab va shu bilan birga qiziqarli xarakterga ega bo'lib,




146

146. L.Abdullayev. "Chol portreti".



147. A.Bakirov. "Guli portreti".

147



148



149



150

xilma-xil obrazlarga boy hayoti portretda etakchi o'rinni egallaydi.

Portretda bosh va qo'lning bilakdan pastki qismi muhim ahamiyatga ega, surat chizayotgan kishi tomoshabin nigohini birinchi navbatda shu omillarga jalb qilmog'i kerak.

Insonga xos xarakterni ifodalashda qo'l katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik odamlar qo'l imo-ishoralar ko'magida suhbatlashadilar va bu xususiyatlar ham xarakterni yoritishda yordam beradi.

Portretda ko'z murakkab joylardan biri bo'lib, o'ta aniqlikni va tafakkurni jamlashni talab etadi. "Ko'z - qalb ko'zgusi" deyiladi xalq maqlolarining birida.

Har bir ishni kompozitsiyadan boshlash va uning yechimini topish uchun bir necha qoralama va tezkor rangli etyudini bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu tayyorgarchilik yaratilajak portretning kompozitsiyasini tanlab olishga, proporsiya va rang echimlarining to'g'ri topilishiga yordam beradi.

Detallarni ishlab chiqqandan so'ng ular umumlashtiriladi, xarakterli joylari belgilanadi va ortiqcha narsalardan voz kechiladi. Bu bosqichda umumiylik, yaxlitlik va uyg'unlik ustida ish olib boriladi. Portret ishlashda detallarning qanday ashyodan ekanligini ifoda etish muhim ahamiyatga ega.

Ishni tugatgach, umumiy rang yechimi saqlandimi, xarakter topildimi, boshning hajmiy shakli o'z aksini topgan-topmaganligi diqqat bilan kuzatiladi.

Taniqli musavvirlar yaratgan asarlar portret ishlashga yorqin misol bo'lib xizmat qiladi. Ularning ishlarini kuzatar ekansiz, zamirida qandaydir ma'no yotganligini, xarakterning ohib berilishi va insonning ichki hissiyotlarini ilg'ab olish mumkin.

O'tmishta Leonardo da Vinci, Rafael Santi, Rembrandt kabi buyuk musavvirlar portret janrida yuksaklikka erishganlar.

Mashhur o'zbek musavvirlari Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabihev va ko'pgina boshqa rassomlar bu

148. Sh.Qo'ziyeva. "Madina portreti".  
Fukuoka shahri galereyasida. Yaponiya.

149. J.Umarbekov. "Xayol".

150. Oquv portreti.

Respublika rassomlik kolleji.




151

janrda ajoyib portretlar yaratganlar.


## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Portret o'zi nima? Portretlarning qanday turlarini bilasiz?
2. Rangli portret ishlash bosqichlari nimalardan iborat?
3. Etyud bilan portretning farqi nimada?
4. Belgacha ishlanadigan rangli portretning xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?



152

152. T.Sa'dullayev. "Behzod va Navoiy"



153

### VAZIFA:

**1-mashq.** Suvbo'yoq, tempera yoki guash bo'yoqlaridan foydalangan holda naturadan uzoq vaqt davom etuvchi rangli portret ishslash.

Vazifadan asosiy maqsad-masofadagi shakl va hajmlarni diqqat bilan kuzatib, rang vositasida natura obrazini ochib berish.

**2-mashq.** 1-3 soat davomida biri bosh kiyimda va bosh kiyimsiz odam boshini asl rang usulida etyud qiling.

**3-mashq.** 6-10 soat davomida suvbo'yoq, guash yoki tempera bo'yoqlari bilan odam portretini belgacha tasvirlang.

## Interiyer va eksteriyer

Interiyer binoning ichlari, eksteriyer esa uning tashqari ko'rinishi ma'nosini beradi.

Binoning ichki va tashqi ko'rinishlarini tasvirlash qadimgi Misr, Vaviloniyada antik davrdan boshlangan bo'lsa, sharq miniatyura san'atida esa O'rta asrlarda teskari perspektiva usulida tasvirlana boshladi.




154

154. Kamoliddin Behzod. "Layli bilan Majnun Maktabda." Xirot. XV asr.

155. Kamoliddin Behzod. Maktabda.

Xirot. XV asr.

155





156

156. Tutankamon taxtı suyanchig'ı relefi.  
Eramizgan avvalgi XIV asr. Yog'och.

157. Rafael Santi. "Afina maktabi". Freska.  
moybo'yoq 1509-1510 y.y.

158. Rafael Santi. "Afina maktabi". Lavha.  
Freska, moybo'yoq 1509-1510 y.y.



157

Uyg'onish davrida binolar ichki va tashqi ko'rinishlarini did bilan estetik bezash borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Shuningdek perspektiva, rangshunoslik, yorug'-soya qonuniyatları nazarıyası vujudga keldi. Me'morchilik konstruksiyalari rivoj topdi. Bunga yorqin misol qilib o'sha davrda yashab, so'nmas asarlar yaratgan Paolo Uchella, P'ero Della Franchesko, P'ero Perudjino, Andrea Verrokk'o ijodlarini keltirish mumkin. Leonardo da Vinching chiziqli va rang perspektivasi, rangshunoslik haqida yozgan asarlari hozirgi davrda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.



158



159

Binoning ichki va tashqi ko'rinishlari Rafael Santi, Titsian-Titsiano Vachello, Veroneze, Yakopo Tintoretto kabi buyuk rassomlar ijodlarida ham o'z ifodasini topgan.

Ko'pchilik zamonaviy rassomlarimiz interiyer, eksteriyer ko'rinishlaridan foydalangan holda etuk asarlar yaratmoqdalar.



160

159. Yan Vermer Delftskiy. "Bir qadax may".

160. Piter de Xox. "Beka va oqsoch". 1660.

## Interiyerde rang

Rang-insonlar ijtimoiy hayotining turli muhit va jahbalarini aks ettirishda asosiy vositalardan biridir. Mebel, deraza, eshiklar va boshqa turmush uchun zarur ashyolar zavod va fabrikalarda ko'plab ishlab chiqariladi. Inter'er jihozlari uyning xarakteriga jiddiy ta'sir ko'rsatib, unga shinamlik, estetik qiyofa, alohida joziba bag'ishlaydi. Lekin uning rangi va bezagini tanlash bizning didimizga bog'liqdir.



161



161. F. Reshetnikov. "Derazadan".

162. Alisher Mirzayev. "Qalandarov portreti".


1982 y.

162


Uy egalari ixtiyorida bo'lgan rang tanlash ko'p narsalarni hal qila oladi.

Rangning xususiyatlarini, har qanday holatda odamga muayyan psixologik-fiziologik ta'sir ko'rsatishini unutmaslik kerak.

Interiyerdagi barcha jihozlar va buyumlarning rangini bir butun his etamiz. Xonaning ichki ko'rinishidagi barcha jihozlarning ranglari bir-biriga ta'sir etib qolmasdan ranglarning uyg'unlashganini ko'ramiz.



163



164

163. Sh.Abdurashidov. "Yoshlik tongi".  
1977 y.

164. Bahrom Go'r yashil qasrdagi.  
Buxoro XVII asr.


Xonaning derazasi shimolga qaratilgan bo'lsa, yorug'lik yetishmasligini his qilinadi. Shu sababli interiyerni jihozlashda sariq, qizil va zarg'aldoq singari ranglar ishlatalish ma'qul bo'ladi. Bunda devorlar, parda va poyondozlarni yorqin rangli qilish mumkin.

Agar deraza janubga ochiladigan bo'lsa, aksincha, yorug'lik kuchli bo'ladi. Bu yerda devorlar rangi ortiqcha nurni yutishi uchun to'yingan bo'lishi, ya'ni tegishli his uyg'otishi uchun sovuq ranglardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuni aytish mumkinki, oq, qora ranglarning kulrang tovlanishi barcha ranglarning palitradagi tuslari bilan uyg'unlashadi. Rang tuslanishlari yaqin bo'lgan ranglar to'q yashil och yashil, havorang zangori, qizil jigarrang bilan uyg'unlashadi.

Mashhur italyan dizayner-rassomi Sottas shunday fikr bildirgan: «Ranglar xilma-xilligi kishini toliqtiradi. O'tloqning yashil rangi hamisha yoqimli, chunki u ko'k rangning turli tovlanishlaridan iborat. Dengizning moviy rangi ham, toshning qo'ng'ir tusi ham xuddi shunday ko'rinishlarga ega. Ayni bir xil rangning tovlanishlarini uyg'unlashtirish yo'li bilan hosil qilingan rang bo'yoq majmuasi-hozirgi koloristikaga yondashuvimdir...». Bu fikrni nozik farq qiluvchi bo'yoqlarning birdan-bir maqbul rangi deb e'tirof etib bo'lmaydi. Albatta vaziyatlar, imkoniyatlar va nihoyat didlar turlicha bo'ladi.

Interiyerde ranglar uyg'unligini tashkil etishda did va me'yor hal qiluvchi vosita bo'lib qoladi.




165. Kamoliddin Behzod. "Iskandar va yetti donishmand".  
Xirot XV asr.

# Savollar, mashq va ijodiy vazifalar

1. Rangtasvirga ta'sif bering. Asosiy turlarini aytинг.
2. Qo'llanmadan bir necha rangtasvir namunalarini tanlab, asardagi rangning ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Spektr nima? Spektr ranglari nomlarini aytib bering
4. Qanday ranglarga xromatik va qaysilariga axromatik ranglar deyiladi?
5. Ranglar asosan necha turga bo'linadi? Ularning xususiyatlari ni izohlab bering.
6. Qanday ranglarga iliq va qaysilariga sovuq ranglar deyiladi?
7. Qanday ranglar justligi bir-birini to'ldirib keladi?
8. Rang tuslarini qanday yo'l bilan farqlash mumkin?
9. Buyumning asl rangi deganda nimani tushunamiz va unda yorug'lik ta'sir etganda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
10. B.Jalolov, "Musafso tong", V.Kalf (Gollandiya kitobi) "Natyurmort", I.Haydarov "Oltin kuz" asarlarini kuzatib, ularda rang imkoniyatlardan qanday foydalanganligini so'zlab bering.


166. B.Jalolov, "Musafso tong".  
 167. V.Kalf, "Natyurmort".  
 168. I.Haydarov, "Oltin kuz".



166



168



167

11. Qog'oz yoki kartondan uncha katta bo'Imagan aylana yasab, uning markaziga cho'pdan o'q o'rnateng, aylana sektorlarini har xil ranglarga bo'yang. Shundan so'ng uni aylantirish orqali ranglarni optik birikuvlari bo'yicha qator tajribalar o'tkazing: *qizil+yashil=kulrang*

*qizil+ko'k=kulrang*


*qizil+yashil+ko'k= kulrang*

*qizil+zarg'aldoq+sariq+yashil+havorang+ko'k+*

*binalsha=oq.*

Agar aylana harakatini tezlashtirsangiz, aniq rang va tuslarni ko'rishga erishasiz.

12. Rangli qalamlardan foydalanih har xil usulda ranglarni aralashtirib mashq qilib ko'ring.




13. Ranglarning xilma-xil tuslarini ta'riflashga erishish uchun mashq bajaring. Bir necha to'rtburchak chizib, ularni iliq och nimranglarda bo'yab chiqing. Bo'yoq qurigandan so'ng bitta to'rtburchakni qoldirib, shu bo'yoq bilan qolganlarini bo'yab chiqing. Bu ham qurigandan so'ng ikkinchi to'rtburchakni qoldirib, keyingilarini bo'yab chiqing. Bu ketma-ketlikni takrorlab ranglarning eng och va eng to'q tuslarini topishingiz mumkin. Suvbo'yoq mana shunday nozik turlanish imkoniyatiga ega.



14. Ranglarni bir-biriga suyuq holda aralashtirishni mashq qiling. Ikki bo'yoqning eritmasini tayyorlang. Mo'yalam bilan qog'oz olib, yuzasiga yonma-yon qo'ying. Bo'yoqlar qurimasdan ikki rangni bir-biriga qo'shib yuboring, bu ranglar o'rtasida ajoyib tuslar paydo bo'ladi.

15. Yana bir mashq bajarib ko'ring. Ranglarni suyuq holatda aralash tirish bo'yicha bo'yoq olib, bir-biriga qo'shib ko'ring. Natijada ranglarning chiroyli ko'rinishlari hosil bo'ladi.

16. Ranglarni to'qdan ochlashtirish bo'yicha mashq bajaring. Xohlagan bir bo'yoqning to'yigan eritmasini oling. Suv bilan suyultirib bir tekisda balanddan pastga eng och tusgacha davom ettiring. Bu mashqni pastdan balandga bajarib ko'ring. Keyingi bosqich bir bo'yoqning o'zida bajariladi.



17. Iliq rangdan sovuq rangga yoki sovuqdan iliq rangga silliq o'tish mashqini bajaring. Mo'yqalamni qiya tutgan holda bajarish mumkin.

18. Suvbo'yoq ranglarni ustma-ust qo'yish yo'li bilan nozik farqlarni keltirib chiqaring. Bir qatlam ikkinchisiga qo'shib, yangi rang paydo bo'ladi.

Har xil ranglarni aralashtirib, ularning nozik tuslarini kuzating. Ko'k rangdan boshlab qizil, yashil, sariq, qora, oq va boshqa ranglarni bir-biriga qo'shib ko'ring.

20. Sariq rangni suyuq qilib ko'k va yashilga, sariqdan zarg'aldoq va qizilga, ko'kdan binafshaga va qizildan binafshaga qo'shib, siyoh ranglarni keltirib chiqaring.

21. Bir-biriga o'xshash bezaklarni chizib uni rangda bajaring. Bo'yashda rang kontrastlaridan foydalaning.

22. Rasmdagi ko'zalarni kuzating. Ularning qaysi biri yengilroq, qaysi biri og'irroq, qaysi biri katta va qaysi biri kichikligini aniqlab bering.
23. Darslikdagi manzara tasvirini ko'zdan kechirib, ranglarning havo



ta'sirida o'zgarishlarini, perspektivasi va yorug'likdagi farqlarni kuzating. Manzara asarni idrok qilishda qanday rangshunoslik (asl rang, iliq va sovuq rang, qo'shimcha rang, ranglar kontrasti va boshqa) bilimlari yordam berishini, musavvirni nima his hayajonga solganligini so'zlab bering.


24. Qay tarzda yoritilganda narsaning soyasi iliq va qaysi holatda sovuq bo'ladi (plenerda va xona ichida).


25. Ranglari bir xil gammalli narsa va buyumlardan yoki kontrast ranglar va yorug' ravshan bo'lgan omillar asosida natyurmort tuzing. Natyurmordagi qaysi go'zal ranglar birikmalari sizga yoqgani va hayajonga solganligini so'zlab bering. O'z taassurotingizni etyud lavhasida ko'rsating.

26. Bittadan pomidor, bodring, sholg'om, piyoz, qovun, tarvuz, olma, behi, xurmo, limon, apelsin va shu kabilardan naturmort tuzing. Natyurmortni har xil rangli: havo rang, qizil, oq, ko'k, yashil, sariq fonlarga qo'yib ko'ring. Har bir natyurmortning foni almashganda asl rang o'zgarishlarini aytib bering.

27. Bahor yoki qish manzarasini chizing. Ranglarning havoda aralashuvlarini hisobga olgan holda, alohida surkama usulida bajaring.

28. Mashqni bajaring - yashil, qizil olmani ketma-ket bosqichga riyoja qilgan holda chizib, turli bo'yash usullari bilan tasvirlang. Birinchi olmani lessirovka, ikkinchisini alohida surkama usullari bilan bajaring.





169

169. Daraxtni bosqichlar bilan tasvirlash.  
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va  
dizayn instituti.  
O.Burxonov bajargan.

29. Mashqni bajaring - daraxt shoxini barglari bilan suvbo‘yoqda ishlang.

30. Mashqni bajaring - osmon fonida daraxtni issiq koloritda ishlang. Daraxtning umumiy shakli va xarakterini berishga harakat qiling. Yorug‘

va soya joylar ranglariga e’tibor bering. Daraxt, er va osmonlarning umumiy rang munosabatlarni aniqlang.

31. Mashqni bajaring - gullayotgan daraxt shoxlarini rangli fonda guash bo‘yog‘ida ishlang.


32. Mashqni bajaring - gullarni suv bo‘yoqda chizing (atirgul, lola, gulsafr, xrizantema, gultojixo‘roz va boshqalar).

33. Mashqni bajaring - o‘zingizga yoqqan kosa yoki piyolani guash bilan bo‘yang, yoniga yorqin rangli taqsimcha qo‘ying.

a) tasvirni mo‘yqalamda bir xil qilib chizish, idishning umumiy shakli va nisbatlarni tasvirlash, idishlarni qog‘oz yuzasiga kompozitsiya jihatidan to‘g‘ri joylashtirish;

b) asosiy ranglar bilan bo'yab olish, idishlarning hajmini chiqarishda rang tuslarini aniqlash;

c) tasvirning qismlarini bo'yoqda nihoyasiga yetkazish, yaltiroq joylarini chiqarish, ishni yakunlash.



170

170. Atirgulni bosqichlar bilan tasvirlash.  
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va  
dizayn instituti.  
O.Burxonov bajargan.



34. Mashqni bajaring - shisha idishni guash bilan ishlang. Shisha idish tiniqligini va yorug' joylarini rang orqali ifodalashga harakat qiling, nisbatilarini saqlang, shakl va tus munosabatlarini aniqlang, topshiriqni ketma-ket tartibda bajaring:

- Qalamda chizish;

- Bo'yoqning birinchi qatlamini surish;

- Uni kuchaytirish, hajmini aniqlash, umumlashtirish va ishni yakunlash.

35. Bitta chovgum yoki ko'zani ham issiq, ham sovuq koloritda bo'yang. Bir yorqin rangli chovgum tanlang, uni chizishdan oldin rang uyg'unliklari to'g'risida tasavvur qilib oling.

- Qog'ozning yuzasiga narsani qanday joylashtirasiz (tasvir katta yoki kichik bo'lishi mumkin)?

- Uning ketma-ketligi qanday bajariladi?

- Qanday ranglarni tanlash kerak, fon qanday bo'ladi?

36. Bir necha sariq olma oling va ularni har safar zarur fon tanlagan holda guash bilan turli koloritda chizing.

37. Oq mato oling va uni to'q fonga shunday ko'rinishda osib qo'yingki, matoda murakkab bo'lman buklamalar hosil bo'lsin. Yoritilganda esa yorug'lik, yarim soya va soyalar aniq ajralib tursin. Shu matoning turli ko'rinishlarini har xil koloritda ishlang. Rangning yorug'likdagi va



171. Natyurmort ishslash  
bosqichlari. I.Subhonov  
bajargan (suvbo'yod.  
guash).

soyaning katta tekisliklardagi o'zaro munosabatlarini aniqlang. Shundan so'ng yorug'lilik va soyada mato buklamlari ichidagi yarim soya tuslarining o'ziga xos tomonlarini aniqlang. Buklamalarning shaklini aniqroq ko'rsatishga harakat qiling.

38. "Qiyiqlar va qo'ng'iroqchalar" o'yinini o'tkazing. Loydan hush-tak, qo'ng'iroqchalar, nay, doira va boshqa musiqiy asboblar shaklini yasang. Ko'zingizni yumib, qo'lingizga har xil yorqin mato qiyiqlari to'ldirilgan qopchani olib, paypaslab ko'ring. Uning qalinligi, silliqligi, yo-



172

172. Matoni ishlash bosqichlari.

qimli mato ekanligini o'z tasavvuringiz orqali ayтиб bering. So'ng ko'zingizni ochib, qo'lingizdagi matoning rangiga mos musiqiy asboblarni tanlang. Agar siz qiyiqning rangini topa olmagan bo'lsangiz xafa bo'lmang, chunki siz o'z tasavvurin gizdagи rangni aytdingiz.

39. Issiq ranglardan foydalanib, quyidagi kompozitsiya-lardan birini chizing: “Oftobli kun”, “Quyoshli qirg‘oq”, “Sahroga sayohat”, “Tekisliklar olami”, “Quyosh botishidagi daraxtlar”.



40. Quyidagi kompozitsiyalardan birini sovuq ranglardan foydalanib ishlang: “Muz ko‘chishi”, “Bulutli kun”, “Qor bosgan shaharcha”, “Tuman tushgan dala”, “Yomg‘irli havo”, “Ko‘pikli dengiz”, “Antarktida muzlari”. Ularni uyg‘unlik ketma-ketlikdan foydalanib, bajaring.

41. Qog‘oz tekisligini ixtiyoriy ranglar bilan qoplang. Qog‘ozning ustiga yana bitta oq qog‘oz qo‘yib, ustidan qo‘lingiz bilan yurgizing. Ehtiyyotkorlik bilan ustidagi qog‘ozni ajrating. Shunda siz birdaniga ikki rasmni hosil qilgan bo‘lasiz. Qolib ketgan joylarini chizib chiqing. Rasm o‘z nomiga ega bo‘lsin.

42. K.Mone tomonidan chizilgan “Olma va uzumli natyurmort” asarini ko‘rib chiqing, qaysi ranglar sovuq va issiqligini so‘zlab bering.

43. Qaysi ranglar ustida ilmiy tajriba o‘tkazish mumkinligini aniqlashga harakat qiling. Biz sizga bir o‘yin o‘tkazishni taklif etamiz. “Nima bo‘ladit?” ingliz tilida bu “heppening” (happining-sodir bo‘layotgan hodisa) o‘yini. Siz bunda mo‘yqalam yordamida yangi ranglarni hosil qilib ko‘ring.

44. Ranglar va har xil tuslar uyg‘unligidan foydalangan holda bezakli kompozitsiya yaratting.

45. Loydan yasalgan gul tuvaklarga naqshlar chizib chiqing. Ular sinf yoki sizning xonangizga o‘zgacha go‘zallik baxsh etib tursin. Bu vazifani bajarish uchun siz moybo‘yoq yoki guashdan foydalanishingiz mumkin. Berilgan rang qurigandan so‘ng ustidan laklab chiqing. Tuvak-

larni tasmalar bilan bezash mumkin. Buning uchun tuvakning chetiga yoki ayrim joylariga yelim surish kerak. Agar lenta keng yoki enli bo'lsa, uni bir qancha bo'laklarga kesib olish mumkin. Shunda u tuvakka o'zgacha jilo baxsh etadi. Naqsh berishda geometrik shakklardan foydalananish mumkin. Bu vazifani bajarish uchun ranglar hamohangligiga erishish kerak. Simmetrik va assimmetrik shakldagi kompozitsiyalar xona bezagiga mos tushishini hisobga oling.



173


46. Yorqin rangli chit matodan xalta yoki hamyon tiking. Unga flomaster, applikasiya, moybo'yoqdan foydalanim bezak bering. Bunday xal tani yuvib bo'lmaydi. Bezak sifatida yana geometrik shakkllar, o'simliksimon naqshlar, portretlar, manzara, antiqa hayvon va qushlar xizmat qilishi mumkin. Bunday sumkalar yorqin rangli va ranglar uyg'unligida bajarilgan bo'lsa, onangiz, buvingiz va do'stingizga sovg'a qilsangiz ma'qul bo'ladi.

47. Quyidagi adabiyotlarni o'qib chiqing: "Algomish", "Go'ro'g'li", "Uch og'ayni botirlar", "Rustam", "Yoriltosh" va boshqalar. Bu adabiyotlarga o'zingiz tanlagan holda rasmlar chizing. Bu rasmdagi ranglar



uyg'unligi har xil bo'lishi mumkin. Jumladan, amaliy, majoziy va bezakli rasmlar. Eng muhimi, ranglar qahramon obrazini tasvirlashga va rasmlar bir maromda ishlanishiga yordam bersin.


48. She'rlarni o'qib chiqing, ular mazmuniga xos rangli tasvirlar chizing. She'rlarda ko'rsatilgan badiiy ifodalarni ranglardan foydalanib, tasvirlab bering.






## JIGAR RANG

*Ranglar qanday yaralgan?  
Quyoshning ranglaridan.  
Ranglar qanday taralgan?  
Quyoshning kulganidan.  
Yo'q,-der mayin bir ohang,-  
Yerdir ranglar onasi,  
Shuning uchun oftobning  
Yaltirar peshonasi.  
Mehnatkash yer husnini  
Ranglarga to'kib solgan.  
Shu sabab uning o'zi  
Jigarrang bo'lib qolgan.*



## QIZIL RANG

*Qahramonlar qonidan  
Yaralganman men.  
Qahramonlar jonidan  
Yaralganman men.  
Gulxan bo'lib o'timda  
Men urushni yondiray.  
Odamlarga baxt, tinchlik  
Ulashib quvontiray.*




## OQ RANG

*Men-buvijonlar  
Sochidagi oq.  
Paxta xirmoni-  
Oppoq-oppoq tog'.  
Pag'a-pag'a qor  
Ko'nglimda bahor.  
Men oppoq daftar  
Momiq kabutar.  
Onalar mehri  
Yo'g'rilgan sutman.  
Poklik, halollik  
Baraka qutman.*




## SARIQ RANG

*Sariq to'n kiyib olgan,  
Apelsinu mandarin.  
Totib ko'ring ulardan  
Ichi g'ij-g'ij vitamin.  
Sap-sariq behilarni,  
Damlab esang palovga,  
Xushbo'y hidi taralar,  
Ming kasalga davo-da!  
Demang meni kasal rang,  
Aslim o'zi asal rang.  
Ranglar ichra quvnoqman,  
Ruhga quvvat o'ynoqman.*




## QORA RANG

*Qora bo'lsam ham biroq,  
Qilmishlarim bari oq.  
Deyishadi qoravoy,  
Ishi a'lo, saravoy.  
Ranglar mendan boshlanar,  
Ba'zan ko'nglim g'ashlanar.  
"Urush rangi- qora", - deb  
eshitib qolaman goh.  
Aslida tinchlik so'zin  
Tutaman sergak, ogoh!*



## YASHIL RANG

*Istayman doimo  
Yashnasin bahor.  
Erka maysalarga  
Bermagil ozor.  
Yashil-olam rangan,  
Tengsiz bo'lagin,  
Avaylab, asragin  
Shudir tilagim.*



## HAVO RANG

*Ot guldiratadi,  
Momoqaldiroq.  
Qo'rquinchlimas bular,  
Chaqaver chaqmoq.  
Mayli, yomg'ir yog'sin,  
Mayli, yog'sin qor.  
Faqat osmon qolsin  
Tiniq, beg'ubor.*








## JOZIBA


*Ranglarning tovlanishin  
Ko'rganmisiz bolalar?  
Olam bo'ylab etti rang-  
Etti qo'shiq taralar.  
Etti rang kuylaganda,  
Tabiat yashnar tetik,  
Yetishmasa-chi biri,  
Tabiat qolar kemtik.  
Quyoshning jilvasidan,  
Shodlanar, kular olam.  
Ranglar jozibasidan  
Ona er go'zal, ko'rksam.*

*She'rlar muallifi  
Qutbi Nosirova*





# Bolalar galereyasi



O`zbekiston Badiiy Akademiyasi  
tasarufidagi litsey internat oquvchi-  
larining, Xalqaro ko`rik tanlovlarda  
sov vindor o`rnlarni egallagan ijodiy  
ishlaridan namunalar.



БОЛАР ГАЛЕРЕЯСИ



**Nurxon Ziyoxonova.**


“Zamonaviy qiz”. 13 yosh.




**Dildora Sadullayeva.** “Do'stlar”. 14 yosh.



**Atxam Xamrayev.** "Oltin do'ppi". 13 yosh.



**Kamola Subxanova.** "Bayram." 14 yosh.




**Mirolim Mamatov.**  
"O'zbek qizi." 13 yosh.



Umarbek Rajapov. "To'y." 15 yosh.





Eldor Davinov. "Chlapec."




Anifa Artiqova.  
"Orol soxillari." 2003 y. Nukus.



**Umar Rajabov.**  
“Izlar”. 2003 y. Urganch.



**Akram Hayitov.** “Ajal urug’i”. 2003 y. Andijon.



Alfiya Ziparova "Oquv Natyurmorti"

A. Xo`jayev nomidagi tasviriy va  
amaliy san`at bilim yurti



**Anvar Nazarov "Oquv Natyurmorti"**

A. Xo`jayev nomidagi tasviriy va  
amaliy san`at bilim yurti



**Ulug'bek Otanazarov. "Dugonalar". 15 yosh.**



**Shuhrat Jorayev** "Samarqand" etyud

A. Xo`jayev nomidagi tasviriy va  
amaliy san`at bilim yurti



**Zebo Yusupova "Uchar do'ppi"**

A. Xo'jayev nomidagi tasviriy va  
amaliy san`at bilim yurti


BOKTAJAP GAFURZADA

# BUYUK MUSAVVIRLARNING IJOD SIRLARI



174

Buyuk rangtasvir ustalari o'z asarlarini qanday yaratganliklari, qanday ijodiy sirlarga ega ekanligi hamma uchun qiziqarli. Quyidagi satrlarni o'qib, ular haqida bilib olishingiz mumkin. Jahon san'atining buyuk namoyandalari o'zlarining qimmatli maslahatlarini yozib qoldirganlar. Mazkur fikrlar orqali Sharq va G'arb rangtasvirining farqli tomonlarini bilib olishingiz mumkin.



175

## Leonardo da Vinci

... Toza havo va quyosh nuri bilan yoritilgan daraxtlarning barglari to'q rangda bo'lsa, bir tomonidan havo bilan yoritilganligi sabab ko'kish bo'lib ko'rindi. Boshqa tomonidan ular havo yoki quyosh bilan yoritilgan bo'lib, quyosh yoritgan qismi yaltirab turadi.

... O'simliklarning soyasi hech qachon qora bo'lmaydi, chunki havo kirgan joy ma'lum darajada yoritilgan bo'ladi. Shamol ta'sirida maj-nuntol va shu kabi daraxtlar novdalari nozik bo'lgani uchun ko'proq egiladi. Katta o'rmonlar, ekinzorlar va o'tloqlarda shamol ta'sirida bo'ladigan to'lqinlar, dengiz va ko'llarda bo'ladigan to'lqinlardan farq qiladi. Shamol tekkanda qum tekislanadi.

Shamol o'z to'lqinlarini qanday paydo qilishini kuzating va qum shamolga nisbatan qancha sekin harakat qilayotganini belgilang. Suv bilan ham shunday hodisani kuzatish mumkin, ya'ni suv va qum harakatlari orasidagi farqni kuzating.

... Yorug'lik mutlaqo bo'lмаган joy zimiston hisoblanadi, siz esa ba'zi syujetlarni tunda tasvirlashni istaysiz. Buning uchun siz, katta alanga paydo qiling va unga yaqin bo'lgan hamma narsaga alanga rangini berинг.

Har qanday ob'ektga yaqin turgan narsa o'sha ob'ektning tabiatiga ko'proq aloqador bo'ladi.

Agar siz olovni qizg'ish rang bilan belgilasangiz, u yoritayotgan hamma narsa qizg'ish rangda bo'lishi kerak. Olovdan uzoqroq turgan narsalarni esa ko'proq tunning qora rangi bilan bo'yang.

Olov yonida turgan shakkilar, olovning sonida qora bo'lib ko'rindi. chunki siz ko'rayotgan qism olovning yorug'ligi emas, tun qorong'uligi bilan

114

o'ralgandir. Atrofdagi narsalar rangining yarmi qoramadir, yarmi esa qizg'ish bo'lishi kerak va alanganing chetlarida ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsalar butunlay qora fondagi qizg'ish rang bilan yoritilishi kerak.

Harakatni tasvirlashga kelsak, olovga yaqin turgan odamlar issiqning taftidan qo'llari va kiyimlari bilan himoyalansin, yuzlarini qarama-qarshi tomonga burib olsin. O'zlarini bu erdan qochmoqchi bo'layotgandek, uzoqroqda turganlari esa yorug'likdan ko'zlarini ehtiyoj qilayotgandek tutsinilar.

## Kamil Koro

Terakni tasavvur qiling. Boshqalar uni to'g'ri o'sayotgan qilib chizishadi. Men esa bunday qila olmayman, uni shamolda tebratishga majbur qilaman.

Men buni qachonlardir bir muxlisimga aytgan edim u o'ziga atalgan suratga yengil bargli daraxtlarni kiritishimni so'radi. U buni behad yaxshi ko'rар edi. Men uning iltimosini bajarishga va'da berdim. Qat'iyat va shioat bilan ishlashim kerak va bu ishda tabiatning o'zi eng yaxshi maslahatchimdir.

## Chingiz Ahmarov

-Men o'z asarlarimni hech qachon miniatyuraga o'xshatib ishlayman deb niyat qilmayman. Lekin ajoyib ijodiy mакtablar yaratib ketgan buyuk musavvirlarning miniatyura asarlarini juda-juda sevaman, e'zozlayman, o'rganaman. Miniatyura san'ati meni o'zining rang majmuasining uyg'unligi, vogelikning hayotiy tarzda ifoda etilishi, samimiyligi bilan maf-tun etadi. U men uchun san'atning eng yuksak cho'qqilariga doim chorlaydigan, ijodkorga doim o'mak bo'la oladigan bitmas xazinasi bo'lib tuyuladi. Men undan doim ilhomlanaman, o'rganaman. Miniatyura san'ati men uchun Buyuk Italian san'atkori Dijotto va Mazachchiolar san'ati bilan baravardir.

## O'rol Tansiqboyev

Rangtasvirda avvalambor ranglarni o'rinli tanlash, uni o'z joyida ishlatish, tayyorlay bilish muhimdir. Men ranglarni quyidagicha joylashtirishga o'rganganman. O'ng tomonda rangli moybo'yoqlar, o'rtada oq, chap tomonda esa xira rang bo'yoqlar joylashadi.

## Si Bayshi

Xitoy rangtasvirining g'aroyib ustasi Si Bayshi o'simliklarning tanasi, barglari, gullari va boshqa qismlarini chizishning asosiy usullari haqida ajoyib ma'lumotlar qoldirgan.

Tana va poyalarni qanday chizmoq kerak?

...Umuman olganda gullagan o'simliklar tasvirini ishlash uchun ingicha shtrixlar kabi qalnlari (gunbi) bilan ham shuningdek istalgan usulni tanlab qo'lga mo'yqalam olar ekansiz, bu manzara shaxmat o'yinining qator yurishlari singari xayolan pishgan bo'lishi lozim.

174. J.Basharov. "Liliya".

175. "Gul" natyurmort.

Rassomning har bir harakati butun manzaraga hayot bag‘ishlashi kerak. Faqat shu yo‘l bilangina tasvirda jonsizlikni bartaraf etish mumkin.

O‘simlik dunyosini tasvirga tushirar ekansiz, daraxt bilan o‘t-o‘lanning farqlarini yodda tutgan holda, uning tanasi yoki poyasidan boshlash kerak. Daraxt keksalardek ulug‘vor, ingichka o‘t-o‘lanlar esa nozik va xushqad bo‘lib ko‘rinadi.

Rangtasvida o‘t-o‘lanlarning latifliklari, nozikliklari aks ettirilar ekan, ular tarkiblarining uch ko‘rinishiga: yuksaklikka intilish, pastga yoyilmasligi va ko‘ndalang holatlariga e‘tibor qilmoq kerak.

Odamning oyoq-qo‘llari chehrasiga monand bo‘lgani kabi, tana va poyalarining ham o‘z gullariga nisbatan mutanosibligi mavjud. Inson chehrasi nihoyatda chiroylar bo‘lishi mumkin, ammo uni qo‘l-oyoqlarsiz komil qiyofa deb bo‘larmidi?!

Gul chizish sirlari.

Gullar butoqlarga chirmashgan va uni qoplab olgan kurtaklardan o‘sib chiqadi. Gul va shoxlarning kichik bir qismi saviyasiz tasvirlangan bo‘lsa, yaxshi ishlangan katta qismi bu kamchilikni bartaraf eta olmaydi. Dastavval gullarning latifligi, jozibadorligini aks ettirmoq kerak, shundan so‘ng shox va yaproqlar bilan yanada boyitib sayqal berasiz. Gullar nozik va yengil ranglarda jilo topmog‘i, ilohiy go‘zalligi jonli aks etmog‘i zarurki, u go‘yo hoziroq ajib sirlarini ochib yubormoqchidek inson qalbini qalqitib yuborsin.

Gulkosa va gulyaproq dastalarini tasvirlash sirlari.

Gullar majmuasidan rangtasvir ishlashda ularning murakkab tuzilishlarini aniqlab olmoq kerak: sirti gulkosa, uning ichida esa gulyaproq dastalar, uning sirti va ichini tasvirga tushiring. Xushbo‘y hid gulning mag‘zidan taraladi va shu joyida urug‘ paydo bo‘ladi. Gulning to‘g‘risidan, yonidan va orqa tomonidan chizilayotganligiga qarab, uning gulkosa va o‘zaklari aks ettiriladi. Gulning o‘zagi gulbarglar bilan o‘rab olingan, gulkosalar esa butoqlarga chirmashgan bo‘ladi. Gulning gulkosa va o‘zaklarini odamning yuzu ko‘ziga taqqoslash mumkin.

Gulni qanday chizmoq kerak.

Endi ranglarga kelsak, faqatgina chaman gullarda emas, balki har bir gulda, hatto har bir gulbargda och-to‘qlik yaqqol bilinmog‘i lozim. Uning o‘zak qismida, ya’ni gul o‘rtasida bo‘yoq va rang tuslari to‘qroq, chetlariда esa ochroq bo‘lmog‘i kerak. Shundagina gul mohiyati qonuniyatlar zamirida tasvirlanadi. Hali ochilmagan g‘unchalarning o‘rtasidagi gulbarglar to‘qroq tusda, chaman ochilgan gullarda esa ochroq-nimtusda bo‘ladi. Gullash- dan avval poyasi to‘q tusga, to‘liq gullaganda toza rangga, qovjiray boshlaganda esa oqish tusga kiradi. Gullar yagona to‘q rang tusli bo‘imasdan, och rang tuslari bilan ketma-ket kelmog‘i zarur. To‘q va och ranglar bir-birlariga moslashmoqlari shart. Bu esa o‘z navbatida to‘q tuslarni ajratib turadi va yoqimli manzarani namoyon qiladi.

Xrizantema chizishning asosiy usullari.

Xrizantema mag‘rur tabiatli guldir. Uning xushbo‘y hidi uzoq vaqt so‘nmaydi, rangi benihoya go‘zal va nafis. Musavvir bu gulning obrazini va asil mohiyatini dildan his qilmog‘i kerak. Shundagina u bu ruhiy kayfiyat ifodasini rangtasvida bera oladi (yuchji). Ba‘zi gullar yerga egilgan, ayrimlari yuqoriga qaragan bo‘ladi. Biroq ular haddan ziyod bo‘lib ketmasligi kerak. Ba‘zi gullar barglar bilan yopilgan bo‘lsa yana birlari ularni to‘sib turadi. Biroq bu betartib joylashgan deyilgani emas. Umuman ol-

ganda har bir poya shoxida, har bir gulda va g‘unchada bu xususiyatlar to‘lig‘icha ma’no berib turadi (chji). Bu siri yaxshi anglab olsangiz o‘z maqsadingizga etasiz.

### **Orxideya gulini to‘rt misrada tasvirlash siri**

Orxideya gulg‘unchasin tasvirlovchi ustalarga,  
Garmoniya, ritmlarni pishiq-puxta bilmox kerak.  
Rang tuslari to‘lib-toshib chorlov bersa, hislaringga,  
Bu gulshandan tanlab-tanlab, sarasini surmoq kerak.  
Barglarni qanday tasvirlash mumkin.

Barg va gullarni go‘yo jo‘sish urayotgandek tasvirlamoq kerak.  
Bunga barglarning turli holatlarda joylashuvlarini ilg‘ab olish va joy-joyiga  
qo‘yish yo‘li bilan erishish mumkin.

Qog‘ozga chizilgan gullarga qanday qilib jon kirgazish kerak? Bu ishda barglar ko‘mak beradi. Gullar bamisol parvoz qilayotgan qaldirg‘ochlar singari latif va engil ko‘rinadi. Barglardagi ajib shabnamlar va esayotgan shabada faqatgina yaproqlarning xilma-xil o‘rinlari orqali aks ettiriladi.

Agar bir bo‘yoq bilan chizayotgan bo‘lsangiz, bargning yuza tomoni to‘q, orqa tomoni och rangda ekanligini nazarda tuting. Modomiki ranglar vositasida tasvirlayotgan ekansiz, bargning yuzini to‘qyashil, orqasini esa ochyashil rangda ifodalang.

### **Rasmni oq rang bilan ajratish usullari.**

Nilufar kabi oq gullarni tasvirlashda oq gulyaproqlar uchlari oq rang bilan ajratiladi. Bu o‘z navbatida o‘rin tartibi va shakllarini aniqlab beradi. Barcha oq gullar gul yaproqlarini shu tarzda ajratib ko‘rsatish mumkin.

Oq bo‘yoqlarning kesishuv usullari.

Suv nilufarlari va gipiskus gullarining gulyaproqlarida tomir taramlari bo‘lib, ularni ranglarda tasvirlab bo‘lgandan so‘ng oq bo‘yoq berib chiqiladi. Xrizantemaning har bir gul bargida qalin tomirlari mavjud, ular oq ip singari chiziqlarning kesishuvlari orqali beriladi va konturini engil belgilab olib, oq bo‘yoqning o‘zi bilan bo‘yaladi. Gulborg dastalari va halqalari nuqtalar yordamida chizib olinadi, so‘ng buni oq bo‘yoq bilan yurgizib chiqiladi, uning ustki qismi sariq bo‘yoq bilan ajratib ko‘rsatiladi.

# **TASVIRIY SAN'AT TERMINLARI**

## **AHROMATIK SIRT**

sirt o'zida muayyan rang tuslarini jilolantirmaydi. Bir-biridan faqat yorug'lik kuchlari, tuslari va yorug'likni yutish darjasи bilan farqlanadi.

## **AXROMATIK RANG**

oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yorug'lik kuchlari bilan farqlanadi. Tabiatda mavjud bo'lgan sariq, qizil va zangori ranglar.

## **AKTIV RANGLAR**

ruhni tetiklashtiradigan issiq ranglar. Bir vaqtdagi qarama-qarshilik bir vaqtning o'zida ranglarning yorug'lik kuchi va tuslarini qo'shni ranglarga bog'liq ravishda o'zgarishiga aytildi.

## **ANILIN**

nilbuyoq (buyoq moddalari tayyorlash uchun ishlatalidigan rangsiz, yog'li va zaharli suyuq modda).

## **ANIMALIST**

rassomlik yoki me'morlik san'atida hayvonlarning tasvirini chizuvchi yoki haykalini yasovchi mutaxassis.

## **APPLIKATSIYA**

1. Har xil rangli qog'oz yoki mato parchalaridan soya tasvir (siluet), naqsh, gul va hokazolarni qirqib qog'ozga yoki maxsus pannoga yopishtirish;
2. Shu usul bilan tayyorlangan surat, naqsh, gul va boshqalar.

## **ARKA**

1. Ark, toqi peshtoq (gumbazsimon, ya'ni usti yarim doira shaklida ishlangan darvoza, eshik, deraza va hokazo); 2. Triumfal arka biror tantana munosabati bilan yo'l ustiga qurilgan hashamatli darvoza, ravoq.

## **ARKADA**

arklar, ketma-ket solingan peshtoqlar.

## **ARXAIZM**

arxaizm (san'atning eski formalariga taqlid qiluvchi, ergashtiruvchi badiiy uslub).

## **ASSIMMETRIYA**

simmetriyasizlik (nomutanosiblik, biror buyum qislalaring, bo'laklarining ma'lum bir nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan bir-biriga o'xshamasligi, munosib kelmasligi).

<b>AFINA</b>	Afina (qadimgi yunon afsonalarida donishmandlik ma'budasi).
<b>AFISHA</b>	afisha (konsert, spektakl', kino, leksiya, sirk va hokazolar haqida ma'lumot beradigan yozuvli e'lon).
<b>AFRODITA</b>	qadimgi yunon afsonalaridagi sevgi va go'zallik ma'budasi.
<b>BAROKKO</b>	(ital'yancha) san'atda XYII-XYIII asrlarda urf bo'lgan serhasham badiiy uslub.
<b>BATALIST</b>	jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.
<b>BENUAR</b>	(fransuzcha) teatr lojasining pastki qavati (yarusi), sahna yoki parter balandligida bo'ladi.
<b>VAKX</b>	Yunon va Rumo afsonalarida may va ayshu ishrat xудоси.
<b>VIN'ETKA</b>	(fr.vitrage-deraza oynalari) derazalardagi eshiklardagi (rangli bezak, ulardan ishlangan san'at asarlari) rangli oynalar. Ko'proq cherkovlarda qo'llaniladi.
<b>VENERA</b>	Yunon va Rumo afsonalarida muhabbat va go'zallik ma'budasi.
<b>GAMMA</b>	(grekcha) tasviriy san'atda oralarida muayyan munosabat bo'lgan ranglar sirasi, ranglarning shartli tizmasi.
<b>GARMONIYA</b>	(grekcha-xarmoniya)-bog'iqlik, muntazamlik, kelishganlik, ranglarning uyg'unligi bir-birlariga mos kelishi, mutanosiblik. Muzikada bir necha muzika ohanglarining bir vaqtida yangraganda o'zaro birikishi, uyg'unlashib ketishi, hamohang bo'lishi.
<b>GRAVYURA</b>	(fransuzcha) «gravyor» - kesmoq so'zidan olingan bo'lib, grafikaning bir ko'rinishidir.
<b>GOTIKA</b>	(qadimgi german qabilalarimng nomidan olingan) Yevropada XII-XY asrlarda taraqqiy etgan me'morlik uslubi. Bunda binolar o'tkir qubbali qilib ishlangan va o'ziga xos haykalchalar bilan bezatilgan.
<b>GRUNT</b>	tasviriy san'at, mato (xolst) yoki devorlarga rangli tasvir, dekorativ bezak ishslashdan oldin qoplanadigan mu-

**GUMMIGUT**

rakkab aralashma. Grunt-alifmoi, duradgorlik yelimi,yoki suv emul'siyali bo'lishi mumkin.

**GUMMILAK**

qizil tusli smola, undan korroziyadan saqlaydigan izolyatsiya laki olinadi.

**GRIZAYL**

(fr.grizaille, griz kulrang) kulrang yordamida bir ranging har xil tuslari orqali ishlangan rangtasvir. Grizayl ishlashda jigarrang, to'q zangori kabi bo'yoqlarning har xil tuslaridan ham foydalaniadi.

**DEMON**

Xristianlar mifologiyasida shayton, jin, ajina.

**DETAL**

Qalamtasvir yoki rangtasvir ishlashda naturaning ma'lum bir qismlarini ajratib olish.

**DIAGRAMMA**

turli mikdorlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatuvchi chizma, grafik tasvir.

**DIAPOZITIV**

proekcion fonar orqali ekranga tushirib ko'rsatish uchun shisha yoki boshqa shaffof plastinkalarga, maxsus lentalarga olingan surat.

**DRAPIROVKA**

fon uchun ishlatiladigan har xil rangli materiallar, gazzlamalar.

**DEKORATSIYA**

teatr, ko'cha va klublarining ichki va tashqi qismlarini va hokazolarini bezashda ishlatiladigan san'at asari.

**JANRIST**

rassom, turli janrlarda ishlovchi mutaxassis.

**YORUG'LIK SHU'LASI**

refleks, yorug'lik nurlarining atrofidagi predmetga nisbatan jilolanishi.

**YORQINLIK KONTRASTI**

yorug'lik qarama-qarshiliklari, ranging yorqinligi, unga yonma-yon turgan ranglar ta'sirida o'zgarishiga aytildi.

**ZARISOVKA**

tugallanmagan rasm, grafikaning bir ko'rinishi.

**ZASTAVKA**

chiziqli rasm, bezak. Birorta tekst, bo'limning mazmu-nini ochishda ishlatiladi.

**ILIQ RANG (ISSIQ RANG)**

olovni, qizigan jismlarni, quyoshni eslatuvchi sariq ,to'q sariq ,sarg'ish, zarg'aldoq va qizil rang kabilar.

**INTERIYER**

uyning ichki ko'rinishi tasvirlanishi.

**INTENSIVLIK**

ranglarning zichligi, to'yinganligi, to'qligi, ravshanligi va hokazolar, xristianlarda xudo yoki avliyolar tasvirlangan surat

**ILLYUSTRATSIYA**

kitob, jurnal va gazetalar uchun ishlangan rangli-rangsiz suratlari.

**KALKA**

chizmalarda va naqshlardan nusxa ko'chirish uchun ishlataladigan maxsus nafis qog'oz.

**KAPELLA**

katoliklar ibodatxonalarining atalishi.

**KARKAS**

xaykaltaroshlikda simdan haykalning o'lchamiga, hajmiga mos holda yasaladi va o'zak vazifasini bajaradi. Karkas maxsus taglikka mahkamlangan bo'ladi.

**KARNIZ**

binolarning har xil rel'ef, barel'eflar, o'yma naqshlar ishlangan qismi.

**KARTINA**

tasviriy san'at asari.

**KOMPANOVKA**

chizilishi lozim bo'lgan naturani, manzarani va boshqalarni qog'ozga to'g'ri, chirolyi joylashtirish.

**KOLER**

biror joyga tayyorlangan bo'yoq.

**KOLORIT**

badiiy asarlardagi etakchi rang.

**KOMPOZITSIYA**

kompozitsiya so'zi «Komposito» so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirishni anglatadi. Kompozitsiya tasviriy san'at sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, tanlangan obyektni, naturani, portretni va hokazolarni ma'lum o'lchamdagini matoga (xolst), kartonga va boshqalarga to'g'ri, «chirolyi» joylashtirishdan, ya'ni «kompanovka» qilishdan iborat.

**KONTRAST**

qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroliroq ko'rinishi. Yashil rangn-

ing yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko'rinati va hokazo.

**KONTUR**

tarh, tashqi ko'rinish, shakl. Narsaning qalam tasvirini ishlashda qo'llaniladigan zirh chiziq.

**KONSOVKA**

chiziqli rasm, bezak, tekst oxirida beriladi. Konsovka ham o'zida tekstning mazmunini ifoda etmog'i lozim.

**KOPIROVKA**

naqshlarni, qalam tasvirlarini qog'ozga, gazlamaga ko'chirishda ishlatiladigan qora, qizil, sariq, zangori tushdagi rangli qog'ozlar.

**LAK**

guashda, temperada ishlangan rangli tasvirlarning ustiga qoplashda ishlatiladigan maxsus eritma. Laklar ishlatilishiha ko'ra har xil markali bo'ladi. Guashda, temperada ishlangan rangtasvirlar uchun duradgorlikda ishlatiladigan lakkardan foydalaniladi. Moy bo'yoqlarida ishlangan rangli tasvirlar uchun esa alohida lak qo'llaniladi.

**LANDSHAFT**

manzara, ko'rinish.

**LINOLEUM**

polga qoplanadigan maxsus material. Îdatda, linoleumdan gravyura ishlashda foydalanish qulay bo'lib, unga ishlangan tasvirlar linogravyura deb ataladi.

**LINOGRAVYURA**

gravyuraning linoleumga kesib ishlangan tasviri.

**MANEKEN**

magazinlarning vitrinalarida har xil kiyimlar kiygizib qo'yiladigan yog'och yoki maxsus materiallardan yasalgan odam gavdasi.

**MOYOLIKA**

Malyorka orolining nomidan olingan. Sirlangan sopol buyum.

**MASKA**

niqob. Yangi yil kechalarida yuzga tutiladigan qush, hayvon va shunga o'xshashlarni tasvirlaydigan niqoblar.

**MASKARAD**

har xil niqob va kiyimlar kiyib o'tkaziladigan, kechalar, bayramlar.

**MEDALYON**

ichiga surat joylab, bo'yniga taqib yuriladigan ziynat.

**MINIATYURA**

qadimgi qo'lyozma yoki kitoblarga ishlangan mo"jaz surat. Fil suyagi, metall va hokazolardan kichkina qilib ishlangan haykalcha.

## **MODEL**

namuna. Katta qilib ishlanadigan haykal yoki mashina, samolyot va hokazolarning kichraytirib ishlangan nusxalari.

## **MOZAYKA**

rang-barang shisha, toshchalar, yog'och fanera, charm qiyqimlaridan bir-biriga zich qilib yonma-yon yopish-tirilgan (yoki naqshlar ishlangan) rasm.

## **MOLBERT**

rangli tasvirlar hamda rasm ishlash sohasida qo'llaniladigan moslama.

## **MAZOK**

surtma, mo'yqalamda keskin va uzib-uzib ishlash, bunda asosan mo'yqalamning qog'ozda qoldirgan xarakterli izlari ko'zda tutiladi.

## **MONTAJ**

1. Mashina yoki qurilmalarni har xil qismlardan yig'ish;
2. Tasvir tushirilgan kinolentalarni bir-biriga ulash;
3. Bir necha plansherlarga ishlangan dekorativ rasmlar, naqshlarni maxsus ramkaga joylashtirish, yig'ish.

## **MUSHTIBEL**

katta o'lchamdagи tasvirlarni ishlashda, qo'lni tez tolib qolishdan saqlash uchun bilakka bog'lanadigan moslama. Óchida sharsimon tutqich bor.

## **NABROSKA**

xomaki ish, qoralama, xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajariladigan chiziqli tasvir.

## **NATYURMORT**

(fransuzcha - jonsiz tabiat) tasviriy san'at janri. Gul, meva, qushlar, ro'zg'or buyumlari, ayrim mehnat qurolari, to'kin dasturxon tasvirlanadi.

## **NOTINIQ JISMLAR**

yorug'lik nurlarini to'la qaytaruvchi yoki singdiruvchi jismlar.

## **ORALIQ RANG**

rang doirasining tashqi halqasida-sariq, yashil, ko'kish, binafsha va hokazo tartibda joylashadigan oraliq ranglar.

## **PANNO**

dekorativ uslubda ishlangan san'at asari, matoda (xolstda) yoki kartonda bajariladi. Ma'lum joylarni bezashda ishlatiladi.

## **PERSPEKTTIVA**

qisqarish demakdir, havo perspektivasi, tabiatdagи har xil perspektivalar, masalan, yo'l, temir yo'llarning olis ufqda qisqarishi va hokazolar.

**RANG YORQINLIGI**

rangning tushayotgan yorug'lik nurlaridan ko'p yoki kam miqdorda jilolanish xossasidir. Yorug'lik nurlari ko'p aks etsa, rang och tusda, kam aks etganda esa to'q tusda jonlanadi.

**RANG TO'YINGANLIGI**

xromatik rangning yorqinligi bo'yicha o'ziga teng kela-digan kulrang axromatik, rangdan ko'p yoki kam miqdorda singdirish qobiliyatiga aytildi.

**RANG LARNI ARALASHTIRISH**

ikki xil rangdan uchinchiligi hosil qilish, aralashma yoki omuxta ranglar. Masalan, qizil, sariq-zarg'aldoq va hokazo.

**RANG**

yorug'lik nurlarining atrofdagi jismlarga, predmetlarga va hokazolarga urilib qaytishida hosil bo'lgan ma'lum bir natija. Masalan, predmetga yashil nurlar tushsa-qizil bo'lib ko'rindi.

**RANGLARNING VAZMINLIGI**

ranglarning kishida og'ir va engil taassurotlar uyg'otuvchi xususiyati, to'q va och ranglar.

**RANGLARNING TOZALIGI**

mazkur rang tusining spektr tusiga yaqinlashib borishi. Spektr ranglari eng toza ranglardir.

**RANGLARNING TENGLASHUVI  
QONUNI**

tenglik, ranglarning o'zaro muvofiqlashuvi qonuni, to'ldiruvchi va qarama-qarshi ranglar misolida ko'rish mumkin.

**RANGLARNING FAZOVIY  
XUSUSIYATLARI**

ranglarning zichligi, engilligi, yuzani yaqinlashtirib yoki uzoqlashtirib ko'rsatish qobiliyati.

**SILUET**

XVIII asr fransuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush, narsalarining soyaga o'xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg'a rangdagi qog'ozni kesib, ishlab, boshqa rangdagi qog'oz yoki materialga yopish-tirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda, Yaponiyada va boshqa sharq mam-lakatlarda, XVIII asrdan boshlab esa Yevropada rivojlangan. Keng ma'noda-narsa, bino, turli shakllarning xarakterli ko'rinishidir.

**SIYOH QALAM**

kichik mo'yqalam bilan naqsh konturini bo'yoqda chizib chiqish.

**SOVUQ RANGLAR**

muzni, qorni, suvni eslatuvchi havo rang, zangori, ko'kish yashil, to'q binafsha kabi ranglar.

**TUSHUVCHI SOYA**

predmetdan fonga yoki erga, birorta materialga tushayotgan soya, tushuvchi soya predmetning shakli va hokazolarini belgilaydi.

**TANLAB SINGDIRISH**

predmetlarni spektrdagи barcha ranglarni yutib, birortasini qaytarish xususiyatiga aytildi.

**TINIQ JISMLAR**

yorug'lik nurlarining ko'p qismini o'tkazuvchi (shaffof) tiniq jismlar. Masalan, oyna, plastmassa buyumlar (javon va shkaflarda ishlataladi) va hokazolar.

**QO'SHIMCHA RANGLAR**

qizil, sariq va zangori bo'yoqning aralashuvidan hosil bo'ladigan omuxta ranglar.

**EKSTERIYER**

binoning tashqi ko'rinishini tasvirlanishi

## Ranglarning xalq tilidagi turlich atamalari

Alvon, arg'uvon, bargikaram, binafsha, bug'doyrang, bo'z, gulgum, gunafsha, jigar-rang, zangori, za'faron, zumrad, qahrabo, ko'k, lojuvard, lolarang, malla, moviy, moshrang, nofarmon, ol, oq, pistamag'iz, pistoqi, pushti, sariq, safsar, somonrang, sur, feruza, o'choqkesak, qizil, qirmizi, qora, qoramag'iz, qoracha, qo'ng'ir, havorang, zarg'aldoq, qizg'aldoqrang, lolagun, asali, rayhoniy, jimriy, zaytiy, yoqutiy, rummoniy, bahrazulmoniy, gulobiy, nilobiy, shol, anordona, aqiq, bayzogul, bargrang, baqato'ni, bika, burul, gulnor, danifarang, jigari, jiyyon, jo'sha, zaynovi, zar, zarchava, zok, kaptarbo'yin, ko'ktemir, ilovi, limurang, makaylik, miynoviy, navvotrang, nimiratir, nimpushti, norgul, olovrang, olmatalqon, oq upa suvi, sabzarang, saman, sariq, sariqkesak нинди, sir, so-vot, surmarang, tillarang, to'pori, to'riq, to'tiyoyiy, xamirrang, shaftoli, shaftoli guli, shingob, shinniy, qizilkesak, qovoqsariq, g'irko'k, g'oliya, hal, haftrang, dag'al, juvda, zulmoniy, iliq, issiq, kamsuv, kirmunavvar, musaffonafis, nim, odmiy, och, ochiq, ravn-shan, rangpar, sal, sersuv, sovuq, so'niq, tin, tiniq, toza, to'q, xira, charog'on, shabrang, shaffof, eng yaltiroq, o'nggan, o'chiq, yo'l-yo'l, katak, ola, ola-bula, ola-kula, olachipor, pesa, taram-taram, targ'il, chipor, xol-xol, qashqa, ko'k yashil, qizil jigarrang, ko'kimtir (!), oqimtir (!), qizimtir (!), qoramtir (!), sarg'imtir (!), ko'kish, oqish, sarg'ish, qizg'ish, rangpar, nilfom, norfom, ko'kcha, qoracha, oqchil, nomchil.

## Adabiyotlar ro'yxati.

- O'zbekiston san'ati. Mualliflar guruhi. "Sharq", 2001.
- O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Axborotnomasi. 1-son, -T., SITI. 2000.
- O.K.Apuxtin. Tasviriy san'at asoslari. -T., "O'qituvchi", 1967.
- N.Abdullayev. San'at tarixi. 1-tom. -T., "O'qituvchi", 1986., 2-tom, -T., "San'at", 2001.
- A.Egamberdiyev, R.Axmedov. -T., 1994.
- V.V.Alekseyeva. Chto takoye iskusstvo? -M., 1991.
- A.D.Alexin. Kogda nachinayetsya xudojnik. -M., 1993.
- A.D.Alexin. O yazike izobrazitel'nogo iskusstva.-M., 1973.
- G.V.Beda. Osnovi izobrazitelnoy gramoti. -M., 1989.
- B.R.Vipper. Statyi ob iskusstve. -M., 1970.
- N.N.Volkov. Svet v jivopisi. -M., 1965.
- Yu.A.Volkov. Rabota nad jivopisnymi etyudami.-M., 1984.
- Yu.A.Gerchuk. Yazik i smisl izobrazitel'nogo iskusstva. -M., 1994.
- Jivopis: Ucheb.posobiye dlya vuzov/ N.P.Beschastnov i dr. -M., 1993.
- B.V.Ioganson. O jivopisi. -M., 1960.
- A.K.Kalning. Akvarel'naya jivopis. -M., 1986.
- E.A.Kameneva. Kakogo sveta raduga. -M., 1971.
- Yu.M.Kirser. Risunok i jivopis. -M., 1992.
- V.S.Kuzin. Psichologiya. -M., 1982.
- N.Ya.Maslov. Plener. -M., 1984.
- N.V.Odnaralov. Materiali, instrumenti i oborudovaniye v izobrazitelnom iskusstve. -M., 1983.
- X.M.Parramon. Kak pisat maslom. -SPB, 1992.
- X.M.Parramon. Osnovi jivopisi. -M., 1994.
- Populyarnaya xudojestvennaya ensiklopediya. Kn. 1,2/ Gl.red. V.M.Polevoy. -M., 1986.
- M.K.Prette. Tvorchestvo i virajeniye. T. 1,2. -M., 1981, 1985.
- T.I.Priluskaya. Jivopis italyanskogo Vozrojdeniya. -M., 1994.
- Risunok. Jivopis. Kompozitsiya: Xrestomatiya/Sost. N.N.Rostovsev, S.E.Ignatev, E.V.Shoroxov. -M., 1989.
- E.E.Rojkova, E.A.Xersonskaya. Risovaniye. 5 klass. -M., 1964.
- E.E.Rojkova, L.L.Makoyed. Izobrazitelnoye iskusstvo. 6 klass. -M.,1968.
- Soveti masterov: Sbornik. -L., 1973.
- V.N.Tyajelov. Iskusstvo Germanii, Niderlandov, Flandrii, Gollandii XV-XVII vv. -M., 1995.
- V.N.Tyajelov. Iskusstvo srednih vekov. -M., 1993.
- A.A.Unkovskiy. Jivopis. Voprosi kolorita. -M., 1980.
- A.A.Unkovskiy. Svet v jivopisi. -M., 1983.
- M.Xollingsvort. Iskusstvo v istorii cheloveka. -M., 1993.
- Svet v nashey jizni / Xrestomatiya po psixologii. -Kursk, 1993.
- G.I.Shmarkova. Xudojestvennoye naslediye drevnego mira. -M., 1993.
- G.I.Shmarkova. Iskusstvo antichnogo mira. -M., 1993.
- E.V.Shoroxov. Kompozitsiya. -M., 1986.
- A.S.Hipanov. Yunim lyubitelyam kisti i rezsa. -M., 1981.
- Ensiklopedicheskiy slovar yunogo xudojnika. -M., 1983.
- Yuniy xudojnik: Jurnal.
- A.P.Yashuxin. Jivopis. -M., 1985.
- "San'at" jurnali. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi. -T., 1998-2002 y.
- N.Normatov. Tasviriy san'at atamalari lug'ati. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi. -T., 1998.
- Rangtasvir. Tasviriy san'at darslari. Moskva, "Prosveshenie" - AO "Uchebnaya literatura" 1995. (Tuzuvchilar L.A. Shitov, V.N. Larionov)
- Shankar's Children's Art Number Volume 51  
SICK.2000.India
- Shankar's Children's Art Number Volume 52  
SICK.2001.India
- Chegaralar Shedsariya Hamkorlik va rivojlanish agentligi Shvedsariya elchi xonasi hamda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Katalog 2003 y.
- Informatsiya bulleten Slovakiya. 2003 y.

# M u n d a r i j a

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
1. Rangtasvir-rang san'ati	5
2. Ranglarni idrok qilish	13
3. Rang xususiyatlari to'g'risida	23
Rangning fazoviy xossalari	29
4. Asosiy, birikma va qo'shimcha ranglar	30
5. Ranglarning asosiy tavsiflari	31
Rang tusi	31
Rangning och - to'qligi	31
Yorqinlik	33
Yorug'lik va rang kontrasti	34
Yorug'lik kontrasti	34
Rang kontrasti	34
Asl rang	37
6. Ranglar birikmasi	39
Ranglarning optik birikmalari	39
Ranglarning fazoviy birikmalari	40
Ranglarning mexanik birikmalari	42
7. Kolorit	44
8. Ranglarning nomlanishi	52
9. Amaliy maslahatlar	54
Rangtasvirda suv bo'yoq va guash bo'yoqlari	57
Naturadan rangtasvir ishlash jarayoni	58
Amaliy mashg'ulotlar	65
Natyurmort	65
Manzara	72
Manzara ishlash jarayoni	73
Portret	77
Interiyer va eksteriyer	82
Interiyerde rang	85
Savollar, mashq va ijodiy vazifalar	88
Ranglar mushoirasi	99
Bolalar galereyasi	103
Buyuk musavvirlarning ijod sirlari	114
Tasviriy san'at terminlari	118
Ranglarning xalq tilidagi turlichayt atamalari	126
Adabiyotlar ro'yxati	127

## Rangtasvir 5-9 sinflar

Nashriyot muxarriri Nodir Normatov

Bosmaxonaga 27.12.03 yil topshirildi. Bosishga 15.01.04 yil ruxsat berildi. Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Bosma tabog'i 8. Buyurtma № 183. Adadi 3000 dona. «Master Print» MChJ bosmaxonasi.  
Manzil: Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Eshonguzar qishlog'i.